



«MILLIY TIKLANISH»
DEMOKRATIK
PARTIYASINING IJTIMOVIY-
SIYOSIY HADISASI

1995-yil 10-iyundan ehtiqa boshlagan

www.mt.uz / milliytiklanish2022@umail.uz

tiklanish



UZOQ YILLIK
OG'RIQLARGA
CHEK QO'YIYAPTI

6s

MADANIY
JARAYONLAR
TRANSFORMATSIYASI

8s

QO'LLAB-
QUVVATLASH
TUSHUNISHDAN
BOSHLANADI

4s

No 11 (1199)
2023-yil 12-aprel,
chorshanba
Adadi - 8657



YOSHLAR BILAN ISHLASH BU – HAYOT-MAMOT MASALASI

KECHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ISHTIROKIDA O'TGAN
VIDEOTELEKOR YIG'ILISHI ANA
SHUNDAY SO'ZLAR BILAN BOSHLANDI.

REFERENDUMGA

18 KUN QOLDI

FAOL ISHTIROK ETISHGA CHAQIRAMIZ!

“Bu mening
Konstitutsiyam” deya
faxrlanishga haqlimiz

Har bir yurtdoshimiz yangi
tahrirdagi Konstitutsiyani “Bu
mening Konstitutsiyam” deb,
faxr bilan tilga olishga haqli.

6s

QAYSI DAVLATLAR JURNALIST UCHUN ENG XAVFLI?



ISSN 2010-7114

11s



Valyuta kursi:

AQSH dollari 11418.11
1 YEVRO 12460.58.
1 Rossiya rubli 138.97.
1 Angliya funt sterlingi
14205.27.
1 Yaponiya iyenasi 85.79.

12.04.2023

YOSHLAR BILAN ISHLASH

BU – HAYOT-MAMOT MASALASI

Kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokida o'tgan videosektor yig'ilishi ana shunday so'zlar bilan boshlandi.



– Barcha rahbarlar bir narsani bilib olsin: ertangi kunimiz egalari bo'lgan yoshlar bilan ishlash – biz uchun hayot-mamot masalasi! Biz yoshlarga bugundanoq sharoit qilib bermasak, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha inqilobiy tashabbuslarni ilgari surmasak, Yangi O'zbekistonni qanday barpo qilamiz...

ayrim hokimlar va vazirlar yoshlar masalalari bilan jiddiy shug'ullanmayaptilar, ayniqsa Termiz shahri, Chiroqchi, Kasbi, Urgut, Sherobod, Angor, Uzun, Muzrabot, Amudaryo, Dehqonobod, Oltinsoy, Sharof Rashidov, Asaka, Qamashi, Taxiotosh va Peshku tumanlarida yoshlarning bandligini ta'minlash oqsaypti. Shuning uchun ham davlat rahbari Yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy qilinishini ta'kidladi. Endi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o'rganilib, ular bilan manzilli, aniq mezonlar asosida ishlanadi. Qayd etilishicha bunda:

– yaxshi o'qiyotgan, tadbirkorligini yo'lga qo'ygan, rasmiy sektorda ishlaydigan, qobiliyati bor, ijtimoiy faol bo'lgan 4,4 million yoshlar “yaxshi” toifaga;

– turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagan, lekin iqtisodiy faol 4,6 million yosh “o'rta” toifaga kiritildi;

– davlatning g'amxo'rliqi va e'tiborini kutayotgan hamda ko'makka muhtoj 396 ming nafar yoshlar esa “ahvoli og'ir” toifasiga ajratib olindi. Yig'ilishda yoshlarni ishga qabul qilish tizimi ham tubdan qayta ko'rib chiqilishi aytiladi. Ma'lumki, o'tgan yili 11 ta davlat oliygohining 11 mingdan ziyod bitiruvchilaridan 6,5 ming nafari ishga joylashmagan. Yoki grantda o'qigan 3 ming talaba ishga kirmagan. Professional ta'limga ham, o'tgan yili kollej va texnikumlarni 143 ming nafar yoshlar bitirgan bo'lsa, shundan 30 ming nafari ish topa olmagan.

Shu munosabat bilan bundan buyon har bir vazir tarmog'idagi kasblarga malaka talabini o'zi belgilashi, bunda 70 foiz kasblarga o'rta maxsus, 30 foiziga oliy ma'lumot talab etiladigan tizim bo'lishi ta'kidlandi. Yig'ilishda “Yoshlar daftari”

jam'arasi mablag'larini ishlatish tizimi ham o'zgarishi ma'lum qilindi.

Bu jam'arasi yoshlarni ko'proq kasbga, tadbirkorlikka o'rgatib, bandligini ta'minlashga yo'naltirgan, xolos. “Yoshlar daftari” orqali ko'rsatiladigan 25 ta yordamning esa 5 tasidan foydalanmoqda. Prezident yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ham yangi tizim

boshqa ko'ngilochar joylar tashkil etilishi kerakligi ko'rsatib o'tildi. Istirohat bog'lari, xiyobonlarda ijodiy va kino kechalari, raqslar, diskotekalar, viktorinalar, “Quvnoqlar va zukkolar” va boshqa bilimga chorlaydigan va ko'ngilochar, tomoshabinlar talabiga mos tadbirlarni yo'lga qo'yish topshirildi. Shuningdek, Prezident Toshkent shahrida Anhor va Bo'zsuv, Nukusdagi Do'stlik, Urganchdagi Shovot, Farg'onadagi Marg'ilonsoy

yo'nalishlarida to'garak ochgan murabbiylarga zarur jihoz uchun 15 million so'mgacha subsidiya beriladi. Ta'kidlanganidek, Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qo'qon kabi turistik majmualarda, shahar va tumanlardagi markaziy park va xiyobonlarda “Ochiq osmon ostida kutubxonalar” ham tashkil qilinadigan bo'ladi. Shu bilan birga, o'z hisobidan kutubxonaga barpo etayotgan tashabbuskorga 1 mingtadan o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlari olib beriladi. Ular davlat hisobidan kompyuter bilan jihozlanib, Milliy kutubxonaga bazasiga ulanadi.

Eng muhimi, yig'ilishda bildirilgan taklif va ilgari surilgan tashabbuslar bo'yicha yoshlarga oid davlat siyosatini samarali tashkil etishga qaratilgan “Yangi O'zbekiston yoshlari” dasturi ishlab chiqilishi belgilab olindi.

Dasturda yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bandligini ta'minlash, ularni IT, xorijiy til, zamonaviy kasblarga o'qitish, sportga jalb qilish, xorijdagi yoshlar bilan ishlash, milliy va oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash masalalari ham nazarda tutilishi, sohada erishiladigan aniq maqsadli indikatorlar belgilanishi ham ta'kidlandi.

– Yoshlar bilan ishlash barcha rahbarlarning, keng jamoatchilikning, butun jamiyatimizning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi, dedi davlatimiz rahbari. Prezident bu borada parlament vakillari, mahalliy Kengashlar deputatlari, siyosiy partiyalar, ziyolilar, nuroniylar, mahalla faollarini ham qattiq bel bog'lab, yoshlar tarbiyasi, ularning muammolarini hal qilish bilan astoydil shug'ullanishga chaqirdi.

O'ZA materiallari asosida tayyorlandi.

Yig'ilishda alohida ta'kidlanganidek, o'tgan davrda yoshlar siyosati bo'yicha ishlarni mahallada tashkil etish bo'yicha mutlaqo yangi vertikal boshqaruv tizimi yaratildi. 9 ming 400 ta mahallaga fidoyi va tashabbuskor o'g'il-qizlardan iborat yoshlar yetakchilari tanlab olindi. Mahallada bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyat yaratildi. O'tgan yilning o'zida:

– yoshlar tadbirkorligi uchun 4 trillion so'm kredit ajratilib, 150 mingta loyiha ishga tushdi, 325 mingta ish o'rni yaratildi;

– 43 ming gektar ekin maydoni ajratilib, 435 ming yoshlar bandligi ta'minlandi;

– 32 mingdan ziyod yoshlarga subsidiya ajratilib, ularga asbob-uskuna, mehnat qurollari va kompyuter olib berildi. Shuningdek, yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 130 ming talaba yoshlarga 1,7 trillion so'm ta'lim krediti berildi, xotin-qizlarning magistraturada o'qishi bepul bo'ladi, 53 ming nafar ehtiyojmand talabalarga o'qish uchun kontrakt pullari davlat hisobidan to'landi, 81 ming talabaga uy-joy ijara to'lovi ajratilib, 15,5 ming yoshlarga harbiy xizmat uchun mablag' to'lab berildi, 13 ming yigit-qizga esa chet tillari bo'yicha sertifikat olish xarajati qoplandi. Ammo yig'ilishda ana shunday tizimli siyosatga qaramay,

« O'tgan yili 11 ta davlat oliygohining 11 mingdan ziyod bitiruvchilaridan 6,5 ming nafari ishga joylashmagan. Yoki grantda o'qigan 3 ming talaba ishga kirmagan. »

shakllantirilishini ta'kidladi. Qayd etish lozimki, ayni paytda chet tili o'qitishga e'tibor tufayli xususiy til markazlari soni 6 mingdan ortdi. Natijada 1,5 million yosh yigit-qizlar bo'sh vaqtini chet tili o'rganishga bag'ishlamoqda. Lekin shu bilan birga, yaqinda 100 ming nafar yoshlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma yoshlar futbol, voleybol, stol tennis va badminton kabi sport turlari bilan shug'ullanishga qiziqishi, bo'sh vaqtini kibersport bilan o'tkazishini, kitobxonlik, musiqa, raqs, karaoke, teatr va kino bo'yicha infratuzilmaga ehtiyoj borligini aytdi. Shu munosabat bilan viloyat markazlarida, keyinchalik tumanlarda butun hafta kechayu kunduz ishlaydigan “Yoshlar sayilgohlari”ni tashkil etish topshirildi. Bu joylarda kibersport, sport va intellektual o'yingohlar, karaoke klublari, teatr, moda podiumlari, buk-kafe, kovorkinglar va

kanallari bo'yida yoshlar ijod ko'chalari tashkil etilishini ma'lum qildi.

Bu yerda rassomlar, haykaltaroshlar, adiblar, sozandalar va ularning muxlislari uchun sharoit yaratiladi. Har bir oliygohda kovorking, teatr studiyalari va raqs maydonchalari bo'lishi kerakligi ta'kidlandi. Oliyog rektorlari futbol, voleybol, basketbol, shaxmat, stol tennis kabi sport turlari bo'yicha o'z klublarini tashkil etadi. Bu klublar Talabalar sport ligalariga birlashib, doimiy turnirlar o'tkazib boradi. Qo'shimcha 300 ming yoshlarning xususiy markazlarda til o'rganish xarajatlariga 100 milliard so'm subsidiya ajratiladi. Yurtimizdagi 206 ta oromgoh yil davomida ishlaydigan tizimga o'tkazilib, har yili 100 ming nafar yoshlarni qamrab oladi.

Tuman markazidan uzozdagi mahallalarda sport, madaniyat va san'at



TARIXIY JARAYONLAR ARAFASIDAMIZ

Aslida konstitutsiyaviy islohotlar ancha avval boshlanganini aytish joiz. Ayniqsa, 2019-yilgi parlament saylovlaridan keyingi tahlillar fuqarolarning qonunlardan ko'ngli to'lmayotganini, ko'plab qonunlar bugungi real hayotga javob bermay qolayotganini ko'rsatganini bir esga olaylik.

Shundan keyin Oliy Majlis Qonunchilik palatasida maxsus guruh tuzilib, amaldagi qonunlar tahlil qilindi, o'rganildi, qiyoslandi. Natijada, haqiqatan ham ko'plab qonunlarimiz bugungi davr shiddatiga javob bermayotgani, hatto Konstitutsiyaga zid kelayotgan holatlar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Birgina «propiska» masalasini olaylik. Ming-minglab yurtdoshlarimiz hayotiga aloqador bo'lgan ushbu o'ta og'riqliq masalani qonun ochiqdan-ochiq cheklar, ammo Konstitutsiyada bu masalani taqiqlash mumkin emasligi bois sukut saqlashdan o'zga ilojimiz yo' edi.

Yana bir misol: 2040-yilga borib mamlakatimiz aholisi 50 millionga yetishi kutilmoqda. Va, aholining

Qayd etish joiz, bugun muhokama qilinayotgan yangilangan Konstitutsiya loyihasi kabinetlarda yaratilmadi. Dastlab ikki bosqichda xalqimizning fikri, takliflari o'rganildi, shundan keyin loyiha tayyorlandi. Loyiha bilan OAV va internet orqali 5 milliondan ortiq odamlar tanishdi. Yakunda esa yurtdoshlarimizning 220 mingdan ko'p takliflari unda o'z aksini topdi.

Xususan, bugun partiyamiz elektorati tomonidan bildirilgan takliflarning aksariyati Konstitutsiyaviy qonun loyihasida aks etganini g'urur bilan aytalimiz. Partiyamizning eng ustuvor maqsadlaridan hisoblangan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda ularni mustahkamlash, ta'lim va tarbiya masalasidagi davlatning huquqi hamda majburiyatlari, o'ta-ona, farzandlar burchi, oiladagi tarbiya bilan bog'liq shart-sharoitlarga davlatning g'amxo'rlik qilishi kabi masalalar unda o'z aksini topdiki, bu ayni sohalardagi hayotiy muammolarga dadil yechim topish imkonini beradi, albatta.

Sa'y-harakatlarimiz samarasi o'laroq, Konstitutsiya muqaddimasida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligimiz, milliy tiklanishimizda davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanishi belgilanyapti.

Eng asosiysi, yangilanayotgan Konstitutsiyaning 50-moddasiga maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir, degan norma kiritilmoqda. Avvalgi konstitutsiyaviy normada faqat maktab ishlari davlat nazoratida, deyilgan edi, xolos. Bu o'zgarish, maktabgacha ta'lim va maktab davri davlatning kafolatli nazoratida bo'lishini anglatadi.

Ayni chog'da milliy qadriyatlarimiz asrab-avaylanayotgan Konstitutsiyamizda bolalar mehnatining har qanday shakllari taqiqlanishi ham muhim norma sifatida belgilanmoqda. Zero, keyingi 6 yilda olib borilgan ishlarning huquqiy asoslarini yaratib qo'yish O'zbekistonda uzoq yillar yurtimizning xalqaro imijiga salbiy ta'sir qilib kelgan majburiy mehnatga bo'lgan munosabatni yanada mustahkamlaydi.

Yangilanayotgan Konstitutsiyaning 77-moddasiga esa alohida e'tibor qaratish lozim, deb hisoblayman. Unda farzandlar tarbiyasi uchun o'ta-onaning mas'ul ekani haqida norma belgilab qo'yilayotgani e'tiborga molik, albatta. Ushbu normaga ko'ra, endilikda o'ta-onalar o'z farzandlarini nafaqat boqishga va tarbiyalashga, balki ularning ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi uchun ham mas'uldirlar.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilayotgan bunday normalar, asosan, insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgani bilan ham yurtdoshlarimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanayapti.

Ya'ni, Konstitutsiya asosida O'zbekistonda haqiqiy ma'noda inson qadri ulug'lanmoqda. Shuning uchun ham xalqimiz to'la ishonch bilan «Bu mening Konstitutsiyam» deb baralla aytishga haqli. Chunki yangi tahrirdagi Konstitutsiya bevosita xalq tomonidan qabul qilinib, to'g'ridan-to'g'ri amalga kiritiladigan birinchi hujjatga aylanyapti.

Alisher QODIROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Spikeri o'rinbosari,
«Milliy tiklanish» DP fraksiyasi
rahbari

Yangi O'zbekiston tom ma'noda ulkan o'zgarishlar ostonasiga qadam qo'yimoqda. Keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar sabab iqtisodiyot, ijtimoiy soha, ayniqsa, inson huquqlari, odil sudlov, so'z va e'tiqod erkinligi bilan bog'liq cheklovlar olib tashlandi. Bularning barchasi tub o'zgarishlarning huquqiy asosini mustahkamlash yo'lidagi dastlabki qadamlar ekaniga guvoh bo'lib turibmiz. Ya'ni, navbat konstitutsiyaviy o'zgarishlarga kelganini barchamiz birdek his etyapmiz.

MUNOSABAT

” KONSTITUTSIYA LOYIHASI KABINETLARDA YARATILMADI. DASTLAB IKKI BOSQICHDA XALQIMIZNING FIKRI, TAKLIPLARI O'RGANILDI, SHUNDAN KEYIN LOYIHA TAYYORLANDI. LOYIHA BILAN OAV VA INTERNET ORQALI 5 MILLIONDAN ORTIQ ODAMLAR TANISHDI. YAKUNDA ESA YURTDOSHLARIMIZNING 220 MINGDAN KO'P TAKLIPLARI UNDA O'Z AKSINI TOPDI.

yarmidan ko'pini yoshlar tashkil qilyapti. Shunday ekan, ularga munosib sharoitlar yaratish, umuman, Yangi O'zbekistonga xos jamiyat barpo etish, shubhasiz, mustahkam huquqiy poydevorni taqozo qiladi. Ammo Bosh Qomusimiz bunday o'zgarishlar uchun huquqiy yechim bera olmasligini bilsakda, biz mavjud holatga ko'nikishga majbur edik.

Referendum haqida qisqacha ma'lumot

KIMLAR REFERENDUM O'TKAZISH TASHABBUSI BILAN CHIQISHI MUMKIN?

Referendum o'tkazish tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti chiqishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisining palatalari



REFERENDUM NIMA?

Referendum O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarini qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir.

REFERENDUM QANDAY O'TKAZILADI?

Referendum fuqarolarning o'z xohish irodasini umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri bildirishi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining referendumda ishtirok etishi ixtiyoriy va erkinidir. Har bir fuqaro bir ovozga ega bo'ladi. Ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolarning yarmidan ko'pi referendumda ishtirok etgan bo'lsa referendum o'tgan deb topiladi.



ENDI ORTGA QAYTISH YO‘Q



Ommaviy axborot vositalarining erkin ekani Yangi O‘zbekiston islohotlarining eng katta yutug‘idir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Xurshid Do‘stmuhammad Olmazor tumani saylovchilari bilan uchrashuvda shularni ta’kidlar ekan, davlatimizning bu boradagi sobit siyosati yangilanayotgan Konstitutsiyada ham aks etayotganini aytdi.

Jumladan, OAV faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilanyapti. Ushbu norma jurnalistlarning erkin, turli ma‘muriy bosimlardan qo‘rqmasdan faoliyat yuritishlarini ta‘minlaydi hamda axborot erkinligining yanada yuksalishiga, jamiyatda ochiqlik va oshkorlik, qonuniylik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Pirovardida, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlab, kuchli jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish va so‘z erkinligini ta‘minlashga erishiladi.

Yangilanayotgan Konstitutsiyaga birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan alohida bob kiritilayotgani esa jamiyatda ochiqlik, oshkorlik va qonuniylik muhitini, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash hamda kuchli jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish uchun huquqiy asos yaratadi.

“MIRANDA QOIDASI” NIMA O‘ZI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Bekmirza Eshmurzayev qo‘shrabotlik saylovchilari bilan o‘tkazgan uchrashuvda Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari kafolatlari kuchaytirilayotganini ta’kidladi.

Jumladan, ilk bor shaxsni ushlab chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquq va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik hamda sukut saqlash huquqi berilmoqda. Huquqshunoslar tili bilan aytganda, qonunchilikka “Miranda qoidasi” kiritilmoqda.

Ma‘lumki, har bir davlatda inson huquqi va erkinliklari, shaxsning sud va tergov organlaridagi himoyasini mustahkamlashga xizmat qiladigan ko‘plab tarixiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, “Miranda qoidasi” ham ana shunday hujjatlardan biridir.

Gap shundaki, 1966-yili AQSHning Arizona shtati politseysiyasi jinoyatchi Ernest Mirandani bir necha og‘ir jinoyatlarda gumon qilib, hibsga oladi. Ammo Mirandaga so‘roq qilinishdan oldin gumonlanuvchi sifatidagi huquqlari tushuntirilmaydi. U o‘z huquqlarini bilmagan holda aybiga iqror bo‘ladi va jazoga tortiladi.

Keyinchalik E. Mirandaning advokati AQSH Oliy sudiga shikoyat qilib, uning mijozlari o‘z huquqlaridan xabardor qilinmay tergov qilinganini da’vo qiladi va buning yuzasidan sudning hukmi AQSH Oliy sudi tomonidan bekor qilinadi. Keyinchalik aynan shu qaror tufayli yuzaga kelgan mazkur yuridik norma xalqaro huquqda «Miranda qoidasi» nomini oladi.



QO‘LLAB-QUVVATLASH TUSHUNISHDAN BOSHLANADI

Namangan davlat universitetining professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari ishtirokidagi tadbirida “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Namangan viloyati Kengashi raisi Dilnoza Azizova so‘zga chiqib, Konstitutsiyada ilm-fan sohasidagi o‘zgarishlar, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga doir yangiliklar to‘g‘risida gapirib berdi.

– Yangilanayotgan Bosh Qomusimizda davlat va jamiyat bolalar hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, o‘z xalqining boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik hamda Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi belgilanyapti, – dedi notiq.

Yoshlarning ta‘lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo‘lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida kiritilmoqda. Davlat shu orqali o‘z zimmasiga muhim majburiyatlarni olmoqdaki, mazkur normalar nafaqat yoshlar manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun muhimdir.

– Shuning uchun ham inson qadrini ulug‘lash g‘oyasi asosida Bosh Qonunimizga kiritilayotgan o‘zgarishlar mazmun-mohiyatini ham avvalo o‘zimiz tushunib olishimiz kerak, – dedi Dilnoza Azizova.

MUNOSABAT O‘ZGARADI

So‘xlik saylovchilar bilan uchrashuvda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Ahmadjon G‘aniyev ham yangilanayotgan Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va unga kiritilayotgan o‘zgartishlar haqida ma‘lumot berdi.

Qayd etilganidek, qariyb bir yil davomida tayyorlangan Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan Bosh Qonun moddalari 128 tadan 155 taga, normalari esa 275 tadan 434 taga ko‘paydi. Ya‘ni, Konstitutsiyamiz qariyb 65 foizga yangilandi. 128 ta moddaning 91 tasiga esa konseptual o‘zgartishlar kiritildi.

– Konstitutsiyaga aholining kafolatlangan bepul tibbiy xizmatdan foydalanishi bo‘yicha ham norma kiritilmoqda. Loyihada bunday normalar 4 barobar ko‘paytirilgani esa xalqimiz sog‘lig‘ini ishonchli muhofaza etishda muhim ahamiyat kasb etadi, – dedi deputat.



Har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta‘minlash choralarini ko‘radi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

48

-modda.

Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchligi uchun javobgardir.

81

-modda.



ADOLAT VA ERKINLIK SARI

Marg'ilon shahrida Konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan o'tkazilgan targ'ibot uchrashuvida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Sherzod Rahimov ishtirok etib, yangilanayotgan Bosh Qonunning ikki bosqichda tayyorlangani, uni shakllantirish jarayonida 200 mingdan ortiq takliflar kelib tushgani va ularning har to'rttadan biri inobatga olinganini gapirib berdi.

– Bu yangilanayotgan Konstitutsiyamizning tom ma'noda Xalq Konstitutsiyasiga aylanayotganidan darak beradi, – dedi Sherzod Rahimov.

Targ'ibot tadbiri ishtirokchilari amaldagi Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgarishlar adolati, erkin jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadam ekanini alohida ta'kidladilar.



“SALOMATLIK” NORMALARI 4 BAROBARGA KO'PAYTIRILMOQDA

– Bu o'zgarishlar xalqimiz sog'lig'ini ishonchli himoya etish, onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi, – dedi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Muborak Axmedova Qo'shko'pir tumani Tez tibbiy yordam markazida bo'lib o'tgan targ'ibot tadbirida.

Ma'lumotlarga qaraganda, joriy yilda “Kafolatlangan xizmatlar paketi” qayta ko'rib chiqilib, unda 20 turdagi kasalliklar bo'yicha diagnostika, davolash va profilaktika xizmatlari hajmi to'liq qamrab olinadi. Ko'p uchraydigan 20 turdagi kasalliklar bo'yicha birlamchi bo'g'indagi bepul analiz turlari 15 tadan 25 tagacha, tekshiruvlar esa 10 tadan 20 tagacha, dorilar 64 tadan 90 taga oshiriladi.



ENG ASOSIYSI MOHIYAT VA MAQSADDA

Parkent tumanida tashkil etilgan navbatdagi targ'ibot tadbirida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari Odiljon Tojiyev so'zga chiqib, keyingi yillarda aholining turmush sharoitlarini tubdan yaxshilash, ijtimoiy muammolarni adolati hal etish, ayniqsa, insonni e'zozlash, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar mohiyati eng avvalo inson manfaatiga qaratilganini ta'kidladi.

Bosh Qomusimizda hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararining o'zni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda bozor qiymatida qoplanishi ta'minlanishi kafolatlanmoqda, – dedi deputat. – Shu bilan birga, har kimning mehnati uchun hech qanday kamsitishsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolati haq olish huquqi mustahkamlanmoqda. Mazkur normaning Konstitutsiyada belgilanishi fuqarolarning ish haqlari miqdori shunchaki emas, aynan ularning munosib turmush kechirishini ta'minlash, pirovard natijada aholi turmush darajasini yaxshilash va mamlakatimizda ijtimoiy adolati ustuvor qadriyatga aylantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tadbir ishtirokchilari Bosh Qonunimizda har bir shaxsning manfaati qadrlanayotgani mamlakatimiz rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishini bildirdilar.



KEKSALAR HAM BEFARQ EMAS

Ichki ishlar tizimidagi mehnat faxriylari ishtirokidagi tadbirida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Jahongir Shirinov ishtirok etib, yurtimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarda nuroniy va mehnat faxriylarining o'rni beqiyos ekanini ta'kidladi.

– Yangilanayotgan Konstitutsiyaga faxriylarimizdan ham ko'plab takliflar kelib tushdi. Ularning boy hayotiy tajribasidan kelib chiqib bildirgan takliflarining aksariyati loyihada aks ettirildi, – dedi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi raisi.

Tadbirida so'zga chiqqan faxriylar ham Yangi O'zbekiston islohotlariga befarq emasliklarini, yosh avlodni tarbiyalash, mahallalarda tinch va sog'lom muhitni shakllantirish, oila-turmush masalalaridagi muammolarni hal etishda yanada faol bo'lishini bildirdilar.

HUQUQIY ASOS MUSTAHKAMLANYAPTI



Jalaquduqlik saylovchilar bilan uchrashgan xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi deputati Zarduna Ismoilova dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar asnosida jonajon Vatanimiz ham o'zgarayotganini ta'kidladi.

– Bu o'zgarishlarni yangi bosqichga ko'tarish, huquqiy asosini mustahkamlash maqsadida Konstitutsiyaviy islohotlarga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, yangilanayotgan Bosh Qonunimizga “inson – jamiyat – davlat” g'oyasi singdirilmoqda, inson manfaati har narsadan ustun qo'yilyapti, – dedi Z. Ismoilova.

Tadbirida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga yoshlar bilan bog'liq alohida bob kiritilib, kelajagimiz egalarining ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratilishi konstitutsiyaviy majburiyat sifatida belgilab qo'yilayotgani alohida e'tirof etildi.

Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi. Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas.

65

-modda.

80

Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

-modda.

2040 yilga borib mamlakatimiz aholisi 50 millionga yetishi va yarmidan ko'pini yoshlar tashkil qilishi kutilmoqda.



UZOQ YILLIK OG'RIQLARGA CHEK QO'YILYAPTI

"Bolalar mehnati, talabalarni majburiy mehnatga jalb qilish... Biz bu jarayonlarni boshimizdan kechirganmiz. 1-sinfidalimizdayoq yig'lab-yig'lab, qor tagida qolgan paxtalarni terganmiz. Yangi o'quv yili boshlanib-boshlanmay paxta dalalariga chiqib ketardik. Yangilanayotgan Konstitutsiyaga bolalarning huquqiy manfaatlarini ta'minlashga oid normalar kiritilganidan behad quvondik".

"Yana bir yildan so'ng universitetni tamomlab, o'qituvchi bo'laman. To'g'risi, ayrim o'quvchilar yoki ota-onalar tomonidan o'qituvchilarning behurmat qilinishiga guvoh bo'lib, xafa bo'lib ketardim. Yangi Konstitutsiyada o'qituvchilar mavqeini ko'tarish, sha'nini himoya qilishga oid normalarni o'qib, xursand bo'ldim. Tanlagan kasbim bilan faxrlandim".

Nukus davlat universitetida konstitutsiyaviy islohotlar targ'iboti bo'yicha o'tkazilgan tadbirda so'zga chiqqanlar yangilanayotgan Bosh Qonun haqida ana shunday ruhdagi dil so'zlarini izhor qildilar.

Tadbirda so'zga chiqqan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Zumrad Bekatova hamda "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy kengashi raisi o'rinbosari Feruza Muhammedjanova esa konstitutsiyaviy islohotlar mazmun-mohiyati haqida gapirishdi. Jumladan, oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash, xotin-qizlar, ishli ayollar huquqlarini himoya qilish, yoshlarning ta'lim olishi, bandligini ta'minlash, iqtidori, salohiyatini yuzaga chiqarish borasida kiritilgan normalar bilan tanishtirdi. Savollarga javob qaytardi.

Ta'kidlash lozim, aksariyat ish beruvchilarga homilador yoki yosh bolali ayollar ish so'rab borsa, turli bahonalarni vaj qilib bo'sh ish o'rni


yo'q degan javobni oladi. Ishlab turgan ayollarni esa homiladorligi yoki yosh bolasi borligini sabab qilib, ishdan bo'shatish oddiy holatga aylangan edi. Ishdan bo'shatmagan taqdirda ham yarim stavkaga o'tishni taklif qilishi yoki oyligini kamaytirish hollari ham uchrab turadi.

Yangilanayotgan Konstitutsiyaning 42-moddasida homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanyapti. Bu norma bilan ayollarimizning uzoq yillik dil og'rig'iga malham qo'yilyapti, — dedi Feruza Muhammedjanova.

Shuningdek, Guliston shahrida o'tkazilgan targ'ibot tadbirida asosan yoshlar, xotin-qizlar hayoti bilan bog'liq o'zgarishlar haqida gap bordi.

Ta'kidlanganidek, 2040-yilga borib mamlakatimiz aholisi 50 millionga yetishi va yarmidan ko'pini yoshlar tashkil qilishi kutilmoqda. Ularga munosib sharoit yaratish, shubhasiz, mustahkam huquqiy poydevorni taqozo etadi. Shu bois, davlat yoshlar huquqlarini himoya qilishni, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag'batlantirishni kafolatlamog'da. Jumladan, yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish — davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilab qo'yilyapti.

F. Muhammedjanovaning ta'kidlashicha, yangilanayotgan Konstitutsiyada xotin-qizlarning ta'lim olishi, ilm-fan bilan shug'ullanishi uchun shart-sharoit yaratish davlatning birlamchi vazifasiga aylanyapti. Mazkur normalar nafaqat ayollar manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun ham muhimdir.



QADRIYATLARIMIZGA MOS QOMUS

Qarshi shahridagi mahalla faollari ishtirokida o'tgan targ'ibot tadbirlarida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Farhod Zayniyev ota-ona va farzandlar zimmasidagi majburiyatlar bilan bog'liq normalar haqida gapirdi.

Xususan, 77-moddada ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga, 80-moddada esa, voyaga

yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburligi belgilanyapti.

Ota-onalarning farzandlariga g'amxo'rlik qilishi, o'z navbatida farzandlarning ota-onaga g'amxo'rligi xalqimizning eng oliy qadriyati sanaladi. Boshqa xalqlarga o'rnak bo'ladigan bunday qadriyatlar endi yangilanayotgan Konstitutsiyamizda ham o'z aksini topmoqda. Bu Bosh Qonunimiz qadriyatlarimiz asosiga qurilayotganidan dalolatdir, — dedi Farhod Zayniyev.

"BU MENING KONSTITUTSIYAM" DEYA FAXRLANISHGA HAQLIMIZ



1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga shu kungacha kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarning deyarli barchasi asosan davlat va jamiyat qurilishiga taalluqli bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilayotgan normalarning yarmidan ko'pi inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatini yanada kuchaytirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Sherzod To'xtashev Ishtixon tumanida o'tkazilgan tadbirlarda ushbu fikrlarga to'xtalar ekan, Konstitutsiya loyihasini tayyorlashda «inson-jamiyat-davlat» g'oyasi asos qilib olinganini ta'kidladi.

— Shu bois, har bir yurtdoshimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyani "Bu mening Konstitutsiyam" deb, faxr bilan tilga olishga haqli. Buning uchun barcha asoslar yetarli, — dedi deputat.

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalani huquqiga ega.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.

42

-modda.

Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi.

Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi.

43

-modda.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Farhod Ashmatov hamda partiyaning viloyat Kengashi raisi Hamidjon Omonovlar ishtirok etgan tadbirlarda ham yangilanayotgan Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati keng muhokama qilindi.

Quyi palata deputati shahrixonliklarga yangi Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgarishlar haqida gapirib, ta'lim va ilm-fanga oid normalar 2 barobarga

oshayotganini ta'kidlagan bo'lsa, H.Omonov davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati kuchaytirilayotganini qayd etdi.

– Bu normalar mamlakatimizdagi 685 ming nafardan ortiq o'qituvchilar jamoasi maqomini yanada oshirishga xizmat qiladi, – dedi viloyat Kengashi raisi.



TABIY BOYLIKLAR UMUMNIKI

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolaridan iborat Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlik guruhi Navoiy viloyatida bo'lib, bir qator sanoat obyektlarida uchrashuvlar o'tkazdi.

Jumladan, Navoiy konmetallurgiya kombinatida tashkil etilgan uchrashuvda yangilanayotgan Konstitutsiya hamda 30-aprelga belgilangan referendum bilan bog'liq masalalar atroflicha muhokama qilindi. Shu

o'rinda deputat va kombinat ishchi-xodimlari yer qa'ridagi barcha boyliklar umummilliy boylik, butun xalqimizga tegishli resurs ekanini belgilab beruvchi konstitutsiyaviy normaning muhimligini ta'kidladilar. Uchrashuvlarda odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratilgani ta'kidlanib, samarali boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishgacha bo'lgan o'zgarishlar haqida ham o'zaro fikr almashildi.

68

-modda.

Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.

69

-modda.

Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

HUDUDLAR RIVOJLANISHIGA XIZMAT QILUVCHI NORMALAR

Qo'rg'ontepalik saylovchilar bilan uchrashgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Tursunoy Muratova fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini ta'minlash inson qadrini ulug'lash va xalqparvar davlat barpo etishning samarali yo'llaridan biri ekanini qayd etdi.

– Yangilanayotgan Konstitutsiyada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolar manfaatli, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etish belgilanmoqda, – dedi Tursunoy Muratova.

Ushbu norma mahallalarda aholi manfaatlaridan kelib chiqib, davlat bilan sheriklik asosida muammolarni hal etish, hududni har jihatdan rivojlantirish, samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.



YOSHLARGA ISHONISH KERAK



Keyingi yillarda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida oliygohlar soni 77 tadan 210 taga yetdi, qabul 5 baravarga, talabalar soni 1 million, oliy ta'lim qamrovi esa 9 foizdan 38 foizga oshdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada oliy ta'lim muassasalarida davlat granti hisobidan o'qish imkoniyati belgilanayotgani, shubhasiz, ta'lim olish istagida bo'lgan yoshlarni yanada ruhlantirmoqda. Buxoro muhandislik

texnologiyalar institutida o'tgan tadbirida shu haqda so'z borar ekan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Nazir Sobirov Asosiy qonunimizda yoshlar uchun alohida bob ajratilayotganini ta'kidladi.

– Yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanyapti. Bu shubhasiz, yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligidan dalolat, – dedi quyi palata deputati.

MULKIY NIZOLAR SUD ORQALI HAL QILINADI

Tan olish kerak, davlat organlarining ayrim qarorlarini ijro qilishda o'rnatilgan tartibga rioya qilmaslik, mulkdorlarni rozi qilmasdan va tegishli kompensatsiya to'lamasdan ijro hokimiyati vakillari tomonidan mulk huquqidan mahrum etish holatlari mavjud. Bu ko'pchilikning haqli e'tiroziga sabab bo'lgani ham bor gap.

Shu bois, yangilanayotgan Konstitutsiyada mulkdan mahrum qilish bo'yicha nizolar faqat sud tomonidan hal etilishi shartligi belgilanyapti. Fuqarolarning har qanday mol-mulki daxlsiz va uni olib qo'yish faqat qonunda belgilangan tartibda bo'lishi kerak. Chunki mamlakatimizda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada eski uy-joylar, bino va inshootlar o'rniga yangilari qurilishi tabiiy holat. Lekin buni odamlarning mulk huquqini hurmat qilib, aholini roziligi bilan amalga oshirish kerak.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Jahongir Abdurasulov Asaka tumanidagi saylovchilari bilan Konstitutsiya qonun loyihasi targ'iboti bo'yicha o'tkazgan uchrashuvlarida yuqoridagi fikrlarni ta'kidlar ekan, fuqarolarni mol-mulkidan sudning qarorisiz mahrum etmaslik to'g'risidagi norma kelajakda aholining turmush farovonligini oshirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, mulkchilik munosabatlarini kafolatlash, xususiy mulk daxlsizligini kuchaytirishga turkni berishini aytdi.





MADANIY JARAYONLAR UNING O'ZIGA XOSLIKLARI

Ulug'bek SAFAROV,
tadqiqotchi

Globallashayotgan dunyoda transformatsiyalashuv jamiyat taraqqiyoti bilan birga kechadigan tabiiy jarayon bo'lgani uchun ham undan turli maqsadlarda foydalanilmoqda. Ma'lumki, bunday sharoitda jamiyatning eng ko'p ta'sirga beriluvchi qatlami - yoshlarni milliy qadriyatlar asosida mustaqil fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng, har qanday mafkuraviy tahdidlarga qarshi tura oladigan, yuksak ma'naviyatli shaxs etib tarbiyalash ustuvor ahamiyat kasb etib borayotir.

Alohida qayd etish joizki, hayot tarzimizning uzluksiz jadallashuvi ham madaniy jarayonlarning u yoki bu darajada transformatsiyasi - o'zgarishiga olib keldi. Bu o'z navbatida, cheksiz imkoniyatlarni taqdim etish barobarida global muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, madaniy jarayonlar mohiyatida tamaddunlar to'qnashuvi, fikrlar va turfa qarashlar ijtimoiy qadriyatlar orasidagi munosabatlarning yangi, o'ziga xos bosqichga ko'tarilishi bilan bog'liq holatlar ko'proq kuzatilyapti. Bunday sharoitda esa madaniy jarayonlar transformatsiyasining yoshlar axloqi, xulqi, ongi va tafakkuriga ta'siri bir qator olimlar tomonidan tadqiq ham etilmoqda. Ma'lumki, "Globallashuv" atamasi dastlab amerikalik olim T. Levittning 1983-yilda "Garvard biznes revyu" jurnalida e'lon qilingan maqolasida qo'llanilgan edi. Ammo unda globallashuv atamasiga iqtisodiy tushuncha sifatida, ya'ni transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayoni", deya izoh berilgandi.

"Transformatsiya" so'zining lug'aviy mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratsak, [lot. transformatio - qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish (genetikada)] - hujayraga yot DNK kirishi natijasida uning irsiy xususiyatlari o'zgarishi; prokriotlarda genetik material almashinishi usullaridan biri ma'nosini bildiradi. Ko'rinadiki, transformatsiya so'zi, avvalo, genetik va biologik tushuncha sifatida fanga kirgan. Axborotlashgan jamiyatda ma'lumotlar va yangiliklarning ko'pligi, ularning tezkorligini ta'minlash va yangiliklarga bo'lgan talabning keskin

ortgani esa insoniyatning global axborot makonida birlashishiga olib keldi. Ushbu birlashuv, o'z navbatida, jamiyat hayotini, xususan, madaniy jarayonlarni ham o'zgartiradi. Aynan shu o'rinda "transformatsiya" terminini qo'llanilishi bizningcha eng to'g'ri qaror bo'lgan. Ya'ni, madaniy jarayonlar transformatsiyasi - inqilob yoki katta o'zgarish emas. Bu mavjud madaniyatning boshqa bir madaniyatdagi ko'rinmas unsurlar natijasida muntazam o'zgarib borishi jarayoni hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu tushuncha genetik, biologik tushuncha bo'lib, muayyan bir virusning organizmga kirib, uning genetikasini o'zgartirish holatiga nisbatan ishlatiladi. Chetdan qaraganda ushbu o'zgarish hatto sezilmaydi ham. Shulardan kelib chiqib aytish joizki, Globallashuv jarayonlari, birinchi navbatda, madaniyatlararo transformatsiya uchun zamin yaratadi va jamiyatda madaniyatlar almashinuviga ta'sir eta boshlaydi. Madaniy jarayon tushunchasi asosan ilm-fan, san'at va madaniyatni o'zida aks ettiruvchi holat bo'lib, ushbu jarayonlarda milliy qadriyat va milliy-ma'naviy merosni yuksaltirish orqali madaniyatning aslligini, milliy o'ziga xosligini saqlab qolish imkoni bo'ladi. Globallashuv va transformatsiya jarayonlari esa mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy hamda mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etadi. Ta'kidlash joizki, globallashuv ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotning intensivlashuvi bilan bevosita bog'liq holatda yuzaga keladigan jarayondir. Bu - ijtimoiy rivojlanishning



yangi bosqichi bo'lib, uning paydo bo'lishi fan-texnika yutuqlari tufayligina yuzaga keladi. Globallashuv ayni paytda faoliyatning turli sohalarida sodir bo'layotgan ko'pdan-ko'p o'zgarishlardan tarkib topadi. Mazkur o'zgarishlar o'zida madaniy jarayonlar transformatsiyasini ham aks ettiradi. Madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuvi esa jamiyatda yangi bir texnologik madaniyatni yaratayotir. Qayd etish joizki, bugungi globallashuv jarayonlari ko'proq informatsion texnologiyalarga keng yo'l ochilishi bilan ahamiyatlidir, bu, o'z navbatida, yangi madaniy jarayonlar shakllanishiga zamin yaratadi. Yana bir dalil: fikrlash uslubining o'zgarishi ham shakllanayotgan madaniyatga xosdir. Jamiyatda fikrlash uslubi abstraksiyaning eng yuqori - algebraik darajasida takomillashtirishga olib keladi. Emotsional boy geometrik fikrlash tarzi

esa o'z-o'zidan qisib chiqariladi. Psixologlarning fikriga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda "eydetizm", ya'ni xotiraning narsalar va hodisalar bilan bog'liq yorqin obrazlarini saqlab qolish xususiyati yo'qolib boradi. Tabiiy til o'z xususiyatlari - ko'p ma'noliligi, turli bo'yoqlarga boyligi, rang-barangligini boy bera boshlaydi. Kompyuterlarning algoritmik tili insonni metafizik fikrlashga, uning dialektik tomonidan ko'ra, formal-mantiqiy tomoniga ko'proq ahamiyat berishga o'rgatadi. Insonning intuitsiyasi susayadi, fikri o'tmaslashadi, eng yomoni, insonning ijod qilish qobiliyati hisobga olinmay qo'yiladi. Kompyuterlarning "parchalovchi" ta'siri, "kompyuter elitasi"ning ajralishi kuzatiladi, insonning muayyan foydali ko'nikmalari, asrlar mobaynida to'plangan "kasb sirlari" va mahoratning yo'qolishi sodir bo'ladi. Ayni vaqtda yangi texnologiyalardan

TRANSFORMATSIVASI

NIMADA?

foydalanuvchilarni og'ir noijodiy ishdan xalos etib, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi uchun keng imkoniyat yaratadi, insondan zararli odatlardan voz kechishni, kasbiy bilimlari, ma'naviy fazilatlarini, umumiy madaniyatini oshirishni, o'z fikrini aniq ta'riflashni talab etadi. Bularning bari kishi fe'l-atvorida muayyan tarzda aks etadi. Uning mehnatga nisbatan mas'uliyati ortadi, mehnatning o'zi ham intellektual jihatdan boyiydi, majburiylik xususiyatini yo'qotadi, ya'ni shaxs o'z qobiliyatini erkin namoyon etuvchi maydonga aylanadi. Kompyuterlar odamlarda mustaqil o'qib bilim olish qobiliyatini rivojlantirish barobarida yuzaga kelgan masalaning yechimini tez va osonlik bilan topishni o'rgatadi.

Asta-sekin insonning mashina bilan aloqa madaniyati shakllanadi. Bu jihatlar butunlay yangicha madaniyatni yaratadi, ya'ni o'ziga xos tartib-qoidalarga ega bo'lgan texnolog madaniyat paydo bo'ladi. Umuman olganda, falsafiy jihatdan "Madaniyat" tushunchasi "milliy-umuminsoniy", "an'anaviy-zamonaviy" so'zlari bilan chambarchas bog'liq holda idrok etiladi. Madaniy rang-baranglik masalasi xuddi shu so'zlar doirasida yondashuvni taqozo etadi. Bunday yondashuvning vujudga kelishi esa insoniyat taraqqiyotining turli jabhalar bilan bog'liq bo'lgan bir qator ijtimoiy, madaniy-tarixiy jarayonlar bilan hamohangdir. Zero, jamiyat taraqqiyotining qaysi jabhasini olmag barchasida milliy-madaniy unsur hamisha ishtirok etadi. Yana globallashuv tushunchasiga e'tibor qaratsak: Olimlar fikriga ko'ra, globallashuv – jahon taraqqiyotining asosiy tendensiyalaridan biridir. Savdo va ishlab chiqarish, iqtisodiy, moliyaviy aloqalarning jahon miqyosida kuchayishi, tezlashishi globallashuvning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Globallashuv – iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarning haddan tashqari intensivlashuvi, eng yangi axborot texnologiyalari va umuman axborotning jahon miqyosida shiddat


bilan tarqalishi, xalqaro standartlashuv va maishiy turmushda, iste'molda, shu jumladan, nomoddiy iste'molda umumiy qolip hamda andozalarning paydo bo'lishidir. Endi globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlariga to'xtalib o'tsak: uning ijobiy tomoni – u xalqlar, davlatlar, milliy madaniy-iqtisodiyotlarning

birdek ta'sir etib, alohida mamlakatlarni jahon hamjamiyatiga bog'laydi. Natijada, yangi bozorlar (kapital, valyuta bozori, sug'urta bozori va hokazo), yangi vositalar (turli axborot tizimlari, internet, uyali aloqa) paydo bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, yangi nazorat vositalarini talab etadi. Bugungi kunda iqtisodiy hamkorlik, intellektual mulk,

” Globallashuvning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda tenglik o'rnini, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning jahon siyosatini belgilab beruvchi kuch darajasiga ko'tarilishi ularning o'z ma'naviyati, madaniyati va axloqiy qarashlarini ommaviy madaniyat negiziga aylantirish borasida olib borayotgan amaliy harakatlarni ham ifodalaydi.

yaqinlashishini tezlashtiradi, ular rivoji uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Salbiy tomoni esa anchayin mayda, kichik etnik guruhlari va millatlar madaniyati, tili, rasm-rusumlari jahon bo'ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o'z-o'zidan ijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib qoladi. Bugunga kelib, globallashuv katta ahamiyat kasb etib borishining bir qancha sabablari bor: texnologiyalar tez rivojlanishi natijasida kommunikatsiya va axborot almashuvi osonlashishi, kommunizmning yo'qolishi kabi siyosiy jarayonlar, transport-logistika sohasi taraqqiyoti natijasida mamlakatlararo yuk tashish hajmi ortishi va turizm rivoji kabilari shular jumlasidandir. Bu o'z navbatida, kompaniyalarga rivojlanish imkoniyatini yaratdi, qo'shimcha bozorlar ochilishiga olib keldi, madaniyat va qadriyatlar integratsiyasi natijasida iste'mol turlari kengaydi, xalqaro bozorda raqobatni kuchaytirdi, yangi xomashyo manbalarini ochib, investitsiya jarayonlarini kengaytirdi. Ma'lumki, Globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga

internetdan foydalanish jabhalarida yangi xalqaro me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, mamlakatlarning ichki qonunlari ham ularga moslashtirib borilayotgani shundan. Globallashuvning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda tenglik o'rnini, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning jahon siyosatini belgilab beruvchi kuch darajasiga ko'tarilishi ularning o'z ma'naviyati, madaniyati va axloqiy qarashlarini ommaviy madaniyat negiziga aylantirish borasida olib borayotgan amaliy harakatlarni ham ifodalaydi. Xulosa qilib aytganda, globallashuv madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuviga sabab bo'ladi. Chunki uning makon va zamonda sodir bo'lish xususiyatlari turlicha bo'lib, uning dunyoning o'zgarishiga o'tkazayotgan ta'sirida ham yangi-yangi imkoniyatlari namoyon bo'lmoqda. Globallashuv tushunchasini madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuvini yaratuvchi o'ziga xoslik sifatida ham e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Albatta, madaniy jarayonlar transformatsiyalashuvining yoshlarga ta'siri masalasi bugungi kunda eng dolzarb va muhim muammolardan biri hisoblanadi.



PREZIDENT BILAN MULOQOT MENGA KATTA KUCH, SHIJOAT BAG'ISHLADI

Bahor faslining 7-aprel sanasi mening hayotimda o'ziga xos yangi sahifa ochdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki men Prezidentimiz bilan suhbatlashish imkoniga ega bo'ldim. Bu muloqot menga katta kuch, shijoat bag'ishladi. Ayniqsa, yosh avlodga sifatli ta'lim berish yo'lida tinimsiz izlanib, yutuqlarga erishdim. Xalqaro loyihalarda qatnashib dunyoning top oliygo'hlari, jumladan, AQSHning Shimoliy Karolina universitetida, Buyuk Britaniyaning Nottingem Trent universitetida malaka oshirishga muvaffaq bo'ldim. Quvonarlisi, Xalqaro TESOL sertifikatini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldim. Ta'lim muassasalarida malaka oshirib, u yerdagi yoshlarga o'zbekistonning o'ziga xos betakror qadriyatlarini, an'analari va taraqqiyot yo'li haqida ingliz tilida qilgan taqdimotlarim Yurtboshimizga ma'qul bo'ldi. U kishi buning uchun menga minnatdorlik bildirar

ekan, yurt sha'nini xalqaro maydonlarda ko'klarga ko'targan har bir inson men uchun qadrlidir, dedilar. Albatta, Yurtboshimizning bu e'tirofi mening pedagogik faoliyatimga berilgan yuksak baho bo'ldi. Bildirilgan ishonch esa shogirdlarim bilan yanada baland marralarni zabt etishda katta motivatsiya berdi. Uchrashuvdan so'ng men o'z ustimda ishlashda davom etishim lozimligini yanada chuqurroq his qilib, o'z oldimga ulkan maqsadlar qo'ydim. Nasib qilsa, shogirdlarim bilan durdona asarlarimizni ingliz tiliga tarjima qilib, kitoblar chop etib, o'zbek adabiyotini dunyoga keng targ'ib etamiz. O'z navbatida mamlakatimiz Prezidenti bildirgan ishonchni oqlashga bor bilim va mahoratimni safarbar etaman.

Dildora
NORQULOVA,
Guliston
shahridagi Halima
Xudoyberdiyeva
nomidagi ijod
maktabi ingliz tili fani
o'qituvchisi

«TOZA HAVO» OYLIĞI BOSHLANDI

Ishlab chiqarish korxonalari, avtomobillar sonining ko'payishi atmosferaga chiqarilayotgan tashlamalar miqdorining sezilarli ortishiga, bu esa o'z navbatida respublikamizda, ayniqsa, Toshkent shahrida havoning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. O'tgan 2022-yil yakuniga ko'ra, havo ifloslanishi bo'yicha xalqaro havo indeksi reytingida poytaxtimiz 20-o'rinni egallagan. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda yurtimizda 4 millionga yaqin avtotransport vositalari mavjud bo'lib, shundan 100 mingtasi nosoz hisoblanadi.

Ulardan atmosferaga bir yilda o'rtacha 1,3 million tonna zararli tashlamalar tashlanadi, bu umumiy tashlamalarning 63,0 foizini tashkil etadi (ushbu ko'rsatkich Toshkent shahrida 88 foizga teng).

Tabiat resurslari vazirligi matbuot xizmatining ma'lum qilishicha, yurtimizda «Toza havo» oyligi boshlandi. Tadbir doirasida 79 ta yo'l-patrol maskanlarida ko'rik nuqtalari, shuningdek, viloyat va shaharlar markaziy ko'chalarida ko'chma postlar tashkil etilib, ularga 500 nafar xodim jalb etiladi. Tadbir davomida respublikaning barcha hududlaridagi yo'l-patrol maskanlarida, viloyat, tuman (shahar)larning markaziy ko'chalarida benzin, dizel, tabiiy siqilgan va suyultirilgan gazda harakatlanadigan avtotransport vositalarining atmosfera havosiga tashlanayotgan zararli gazlar miqdori maxsus asbob-uskunalar orqali ko'rikdan o'tkaziladi. Shuningdek, 79 ta yo'l-patrol maskanlarida ko'rik nuqtalari, viloyat va shaharlar markaziy ko'chalarida ko'chma postlar tashkil etilib, ularga 500 nafar xodim jalb etiladi. Tadbir 10-maygacha davom etadi.

The Korea Post

1985년에 설립된
영문 경제 외교 종합매체
코리아포스트 미디어

SINCE 1985

NEWS, BUSINESS, CULTURE, TOURISM

Janubiy Koreyadagi yetakchi nashrlardan biri – «The Korea Post» jurnali rasmiy saytida yurtimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotga bag'ishlab «Yangilanayotgan Konstitutsiya fuqarolarning uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini kafolatlaydi» sarlavhali maqola e'lon qilindi. Maqola ibtidosida so'nggi yillar davomida amalga oshirilgan islohotlar samarasi o'laroq, mamlakatimizda bolalar mehnatiga chek qo'yilgani, mehnatga oid xalqaro hujjatlardan kelib chiqib, milliy qonunchilikda bolalar mehnatining og'ir shakllari, bolalarning majburiy mehnati qat'iy taqiqlangani qayd etilgan. So'ngra 2019-yil 1-aprel kuni e'lon qilingan Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotida Jahon banki tomonidan O'zbekiston paxta sanoatida bolalar va majburiy mehnatdan tizimli foydalanishga barham berilgani e'tirof qilingani qayd etiladi.

– Bunday o'zgarishlar mamlakat yoshlari uchun keng imkoniyatdir, – deb yozadi muallif. – Bu boradagi

salbiy holatlar qayta uchramasligini ta'minlash, yoshlar har doim o'z iqtidorini namoyish etishi uchun ta'lim va tarbiya olishini kelajakda ham mustahkamlab qo'yish maqsadida qonunchilikdagi bolalar huquqi bilan bog'liq o'zgarishlar yangilanayotgan Konstitutsiyada qat'iy belgilab qo'yilmoqda. Manba loyihaning 44-moddasida bolalar mehnatining bola sog'lig'i, xavfsizligi, axloqi, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, jumladan, uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakli taqiqlanishi belgilab qo'yilganini alohida qayd etgan.

«Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilayotgan mazkur norma bolalarni mehnatning og'ir shakllaridan himoya qilish, sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash kafolatidir», deb yozadi nashr. Maqolada loyihaning 50-moddasiga ham e'tibor qaratilgan. Ushbu moddada ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya belgilanayotgani, sog'lig'ida

nuqsan mavjud bolalar faqat ixtisoslashgan maktablarda emas, hamma qatori umumiy maktablarda ham o'qishi yo'lga qo'yilishi Yangi O'zbekistonda inson qadri tamoyilining amaliy ifodasi ekani ta'kidlangan. «Albatta, yoshlar barkamol inson bo'lib voyaga yetishida uzluksiz ta'lim tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois yangilanayotgan Konstitutsiyada yoshlarning oliy ta'limga intilishini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda barcha yoshlarga oliy ta'lim olish imkonini yaratib berilmoqda. Xususan, 51-moddada fuqarolar davlat ta'lim tashkilotida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli ekani norma sifatida kiritilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad iqtidorli yoshlar uchun davlat granti asosida bakalavriat va magistratura bosqichida ta'lim olish orqali hayotda o'zlarini to'laqonli namoyon etish imkoniyatini kengaytirishdir», deb yozadi «The Korea Post».

O'ZA


MUKARRAMA TURG'UNBOYEVA – MILLIY RAQS SAN'ATIMIZ FIDOYISI



Poytaxtimizda O'zbekiston xalq artisti Mukarrama Turg'unboevaning 110 yillik yubileyiga bag'ishlab press-konferensiya tashkil etildi. Milliy raqs san'atimiz ustoz Mukarrama Turg'unboeva nomi bilan uzviy bog'liqdir. Mukarrama Turg'unboeva 1913-yil 31-may kuni Farg'ona vodiysida tavallud topgan. Ustoz san'atkor juda boy va ajoyib ijodiy hayot yo'lini bosib o'tgan. 1957-yilda tuzilgan «Bahor» raqs ansambli O'zbekiston dong'ini butun dunyoga taratdi va dunyoning eng zo'r raqs jamoalari qatoridan joy oldi. Bastakor Muhammadjon Mirzayev bilan birga yaratilgan «Bahor vals» raqsi «Bahor» ansamblining o'ziga xos ijodiy ramziga aylanadi va oltin meros turkumiga kiruvchi mangu asarlar qatoridan joy oladi. Mukarrama Turg'unboeva tomonidan yaratilgan «Tanovar», «Munojot» kabi raqs san'ati durdonalari XX asrning nodir raqslari turkumiga kirdi. Uzoq davom etgan ijodiy tanaffusdan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 4-fevraldagi tegishli qaroriga binoan «Bahor» ansambli qayta tiklandi. Shundan so'ng o'zining

ilk konsert dasturini 2021-yil 14 va 15-dekabr kunlari xalqimiz e'tiboriga taqdim etdi. Tojikiston, Ozarbayjon, Turkiya, Fransiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Italiya va Birlashgan Arab Amirliqi sahna maydonlarida o'zining konsert dasturlari bilan chiqdi. Mukarrama Turg'unboeva nomidagi «Bahor» davlat raqs ansambli barcha davlat tadbirlarida, konsertlar, musiqiy dasturlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Press-konferensiyada ana shular haqida so'z yuritildi. Mukarrama Turg'unboeva hayoti va ijodiga bag'ishlangan qisqa videorolik namoyish etildi. Unda o'zbek zamini farzandining katta sahna sari qo'yg'an ilk qadamlari, uning boy va betakror ijodiy hayoti aks ettirilgan. Press-konferensiyada «Bahor» ansamblining oxirgi uch yillik ijodi va tez orada bo'lib o'tadigan Mukarrama Turg'unboevaning yubileyiga tayyorgarlik jarayoni, xalqaro ilmiy konferensiya, chet ellik ansambllar ishtirokidagi konsert dasturi, raqqosa ijodiga bag'ishlangan hujjatli film va kitob nashri haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

N.USMONOVA



“Chegara bilmas muxbirlar” (RSF) tashkilotining navbatdagi hisobotida qayd etilishicha, so'nggi 20 yil ichida yer yuzi bo'ylab 1 660 nafar jurnalist halok bo'lgan.

Chorshanba
12-aprel, 2023-yil
№11 (1199)

NEGA OKEANLAR ISIMOQDA

The Guardian nashrining yozishicha, okeanlarda suv haroratining ko'tarilishi ekstremal ob-havo sharoitlariga olib kelishi mumkin.

Aprel oyining boshidan beri okean yuzasining o'rtacha harorati 21,1° ni tashkil etgan, bu 2016-yilda qayd etilgan 21° dan yuqori. Iqlimshunoslarning ta'kidlashicha, okean yuzasi haroratining oshishi global bo'ronlar va muzliklarning erish xavfini ham oshiradi.

POLITSIYA KATO QILDI VA...

DEADLY SHOOTING INVOLVING POLICE FARMINGTON

NEW ON 7 KCIAT

CNN xabariga ko'ra, Nyu Meksika politsiyasi bir fuqaroning yashash joyini adashtirib, boshqa fuqaroni otib qo'ygan. Ya'ni, xavfsizlik kuchlari xabar qilingan jinoyat joyiga yetib kelishgan, biroq bitta raqamni chalkashtirib, ro'paradagi binoga kirib ketishgan. U yerda esa eshikni uyning qurollangan egasi ochgach, u politsiyachi tomonidan otib o'ldirilgan.

QAYSI DAVLATLAR JURNALIST UCHUN ENG XAVFLI?

“Chegara bilmas muxbirlar” (RSF) tashkilotining navbatdagi hisobotida qayd etilishicha, so'nggi 20 yil ichida yer yuzi bo'ylab 1 660 nafar jurnalist halok bo'lgan. Shu davrda 280-300 jurnalist yo'q qilingan Iroq va Suriyadan keyin Afg'oniston hamon ommaviy axborot vositalari vakillari uchun xavfli davlat bo'lib qolmoqda. Jurnalistlar to'g'ridan-to'g'ri yoki buyurtma asosida, ommaviy hujum natijasida o'ldirilyapti, davlatlar aro nizolar qurboniga aylanyapti. Hisobotga, shuningdek, hamkasblarimiz uchun xatarli joylar sifatida Yaman, Falastin va Somalining turli hududlari ham kiritilgan.

Jo Bayden ikkinchi muddatga o'z nomzodini qo'yishga qaror qildi, deya xabar bermoqda AQSH matbuoti. Ma'lumki, AQSHda prezidentlik saylovlari 2024-yilning 5-noyabrda bo'lib o'tadi.

AQSH ESKI PREZIDENT BILAN QOLISHI MUMKIN

HALOK BO'LGANLAR RO'YXATIDA...

“Euronews” xabariga ko'ra, Monblan massivida yuz bergan qor ko'chkisi qurbonlari soni besh nafarga yetdi. Yakshanba oqshomida yana bir marhumning tanasi favqulodda vaziyatlar xizmati xodimlari tomonidan olib chiqilgan.

Avvalroq ikki yo'lbo'shchi va ikki sayyohning jasadlari topilgan edi. Ma'lumotga ko'ra, tabiiy ofat hududida sakkiz kishi jabrlangan, bir kishi jiddiy tibbiy yordamga muhtoj.

Yakshanba kuni tushga yaqin tog'-chang'i majmuasi yon bag'rida 1600 metr balandlikdan yarim kilometr kenglikda qor ko'chkisi kuzatilgan. Fransiya matbuoti tomonidan fojia mavsumning eng ayanchli voqeasi sifatida talqin qilinmoqda.

Ko'chki sababi o'rganilyapti. Mahalliy hokimiyat vakillari dam olish kuni havo harorati keskin ko'tarilganini qayd etgan.

Turk OAVning yozishicha, sobiq futbolchi Mesut O'zil Turkiya prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning Adolat va taraqqiyot partiyasidan deputatlikka nomzod bo'ladi. Eslatib o'tamiz, Mesut O'zil 22-mart kuni futboldagi faoliyatini yakunlagan edi.



ILON MASK 14,5 MLRD YO'QOTDI


Aksiyadorlar kompaniyaning daromadliligi borasida shubhaga borgach, Tesla aksiyalarining qiymati pasayganligi tufayli Maskning boyligi 187,9 mlrd. AQSH dollarigacha kamaygani aytilmoqda. Ammo Ilon Mask shunda ham AQSHdagi eng boy tadbirkor va dunyoning ikkinchi boy kishisi bo'lib qolmoqda.

Internet materiallari asosida F.Xodjayeva tayyorladi.



MAQSUD SHAYXZODA

NEGA QAMALGAN?



Kamina bilgan, yaqindan tanigan ulug' yozuvchilar, shoirlar, ijod ahli qatorida Maqsud Shayxzodaning ham alohida o'rni bor. Oybek domla, Mirtemir singari adiblarimizni qanchalik yaqindan tanigan bo'lsam, Shayx akaning ruhiyatidagi o'ziga xosliklar ham men uchun begona emas. Albatta, bu avliyosifat zotlar qatoriga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va Usmon Nosirlarni ham kiritishimiz mumkin. Afsuski, jadid adabiyotining ulkan siymolari bilan baqamti bo'lish biz tengi avlod vakillariga nasib etmadi. Maqsud Shayxzodaga bo'lgan yuksak ehtiramimning boisi shundaki, u yirik ko'lamdagi ijodiy mehnatlarining evaziga hech qanday e'tirof, taqdirlanish kutmadi, rohat-farog'at ko'rmasdan dunyodan o'tib ketdi. Bo'lg'usi shoir 1908-yili Ozarbayjonning Oqtosh shahrida dunyoga kelgan. Bu joy Bokudan biroz uzoqroqda, Tbilisiga yaqinroqda joylashgan. Aslini olganda Shayxzodaning ota-onasi oqtoshlik emas. Ular Ozarbayjonning boshqa joyida voyaga yetib, Tbilisiga borib o'qishgan. Shayxzoda ota-onasining talabalik davrlarida tug'ilgan. Shaxsini tasdiqlovchi hujjatini esa Oqtoshda olgani boisi, o'zini shu yerda dunyoga kelgan, deb biladi. U boshlang'ich maktabni tamomlaganidan

so'ng Bokuga borib, dorulmuallimida o'qiydi. Shayxzoda bu yerdagi tahsilni ham nihoyasiga yetkazgach, o'zi xohlagani tufaylimi yoki boshqa sabablarni Dog'istonning Darband shahriga yuboriladi. O'sha paytlari Dog'iston Ozarbayjon tarkibiga kirardi. Shayxzoda bu yerdagi ozar tilida gaplashuvchi aholi vakillarining farzandlari tahsil oladigan o'rta maktabda dars beradi. Oradan bir yil o'tib, ota-onasini ko'rgani keladi. Bu yerda ma'lum muddat turgach, yana Bokuga qaytadi. Maorif komissarligiga uchrashib, Darbandga emas, Bo'ynoq shahriga yuborishlarini so'rab murojaat qiladi. Uning talabini o'rganib chiqqan mutasaddilar rozilik bildiradi. Shunday qilib, u o'sha yerdagi texnikumga ishga kiradi. Bu yillar mobaynida rus, turkiy va boshqa tillarni ham mukammal o'zlashtiradi. Gap shundaki, o'sha paytlari Dog'iston endi sho'rolasha boshlagandi. Albatta, bunday paytda fikran taraqqiy etgan, ziyoli kishilar bu jarayonga panja ortidan qarab turlmasligi tabiiy. Ana shulardan biri Mannazar Fayziy edi. Ijodi endi gurkiray boshlagan, tafakkur olami yangi g'oyalar bilan to'lib-toshgan Shayxzoda bu dunyo ko'rgan ma'rifatparvar siymo bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yadi. Ana shu o'zaro uchrashuvlarning mahsuli o'laroq, Shayxzodada mavjud tuzum bilan murosqa qilmaydigan fikrlar uyg'onadi.

U ham bo'lsa, Dog'iston va Ozarbayjon boshqa o'lkalar qatori yaqin o'n yil ichida milliy xususiyatini yo'qotib qo'yadi, degan tashvishi edi. Ana shunday yurt qayg'usi bilan bog'liq jarayonda o'zaro yig'inlar, tadbirlar o'tkazilgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Ta'kidlash joizki, o'sha paytlari bunday hodisalar aksilsho'roviy xatti-harakat sifatida baholalanar, bunday kayfiyatdagi kishilarni ta'qib va qiynoqlar kutardi. Shayxzodani dastlab GPU tasarrufidagi qurilishlarning biriga yuborishadi. Lekin shu haqiqat ayonki, u sobiq sho'ro davlatining oldida tayinli jinoyat sodir qilmagandi. Uni aybli deb topadigan dalillar yo'q edi. Shu bois, ziyarak fikrlovchi Shayxzoda o'zini nohaq ushlab turilgani yuzasidan yuqori tashkilotlarga ariza bilan murojaat qiladi. Buni qarangi, uning haqli e'tirozi ko'rib chiqilib, strategik ahamiyatga ega bo'lmagan shaharlar sirasiga kiruvchi Toshkentga – uch yil surgunga hukm qilinadi. Qizig'i shundaki, Toshkentda Shayxzodaning otasi bilan yaqin do'st bo'lgan bir kishi yashar edi. U Shayxzodaning otasiga "Toshkentga borsa, o'zim yordam beraman", deya va'da bergan. Taqdir taqozosi bilan yurtimizga kelib qolgan shoir dastlab vokzal yaqinidagi Narimonov nomli Ozarbayjon maktabida dars bera boshlaydi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, pedagogik faoliyatni vaqtincha tark etib, "Sharq haqiqati", "Guliston"

„*Ana shu o'zaro uchrashuvlarning mahsuli o'laroq, Shayxzodada mavjud tuzum bilan murosqa qilmaydigan fikrlar uyg'onadi. U ham bo'lsa, Dog'iston va Ozarbayjon boshqa o'lkalar qatori yaqin o'n yil ichida milliy xususiyatini yo'qotib qo'yadi, degan tashvishi edi.*

singari gazeta-jurnallarda she'rlari bilan chiqishlar qila boshlaydi. 1929-yili "Traktor" nomli she'ri chop etiladi. Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir singari o'zbek adiblari bilan do'stlashadi. Ilgari yozgan she'rlarida turk, ozar tiliga xos unsurlar ko'zga tashlanib turgan bo'lsa, endi sof o'zbekcha ohanglar yuzaga qalqiy boshlaydi. Shayxzoda faoliyatida ikki muhim qirra mavjud. Biri ijodkor, aniqrog'i, shoir, publitsist, dramaturg sifatidagi o'rni bo'lsa, ikkinchisi pedagogik faoliyatidir. O'zbek mumtoz adabiyotini, jahon badiiyati durdonalarini, qolaversa, o'sha davr adabiy jarayonini nihoyatda daqiqlik bilan o'zlashtirgan adib va olimning pedagogik faoliyati bevosita Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozir universitet) bilan chambarchas bog'liq. O'zidagi murabbiylik, ustozlik iqtidorini ijodkorlik, to'g'rirog'i, shoirlilik bilan uyg'unlashtirgan Shayxzoda urushga qadar eng peshqadam adiblar sirasidan edi. Ayniqsa, uning adabiy jamoatchilik e'tiborini qozonishiga "Jaloliddin Manguberdi" asarining yaratilishi sababchi bo'ldi. Tabiiyki, bunday keng ko'lamdagi yutuqlar uning ayrim hamkasblariga xush yoqavermasdi. 1951-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining navbatdagi kotibiyat yig'ilishi o'tkaziladi. Kun tartibidagi asosiy masala –

Shayxzodani uyushma a'zolidan chiqarishga qaratilgandi. E'tiborlisi shundaki, o'sha paytlari uyushmadan chiqish kamida yigirma besh yillik qamoq yoki otishga hukm qilish bilan yakun topardi. Ammo yig'ilishda o'tirganlar ayni shu achchiq haqiqatni bila turib muhokamaga qo'yilgan masalani qo'l ko'tarib tasdiqlab beradi. Xo'sh, Shayxzodaga qo'yilgan ayblovning asosiy mohiyatini nima tashkil etardi? Gap shundaki, Hamid Olimjonning fojiali vafotidan so'ng, uyushmaga rahbarlik qilish Oybek domla zimmasiga yuklatilgan edi. U bir vaqtning o'zida sobiq Ittifoq Yozuvchilar uyushmasi raisi

A. Fadeyevning o'rinbosari ham hisoblanardi. "Yosh gvardiya" muallifi rahbar sifatida Oybek domlani turli masalalar yuzasidan Moskvaga chaqirtirishi tabiiy xol. Ana shunday vaziyatlarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga yetakchilik qilish Shayxzodaning chekiga tushardi.

Shunday kunlarning birida Svetlana Somova Shayxzoda o'tirgan kabinetga kirib, "Biz komfirqa yig'ilishini o'tkazmoqchimiz, xonani bo'shatib bersangiz", deydi. Vaqtincha rais vazifasini bajaruvchi esa, "Shu xonadan boshqasi qurib qolibdimi, yig'ilish uchun boshqa xonalar bor-ku", deya javob qaytaradi. O'sha paytlari biror kishiga siyosiy ayb qo'yish uchun bunday dalilning o'zi yetarli edi. Shuning uchun ham Shayxzodaning raqiblari pashshadan fil yasashga kirishib ketishadi. Unga "Shirin va Shakar" dostonini nashrga tayyorlashda feodal o'timishni ulug'lagani, «Ozarbayjon xalqining jallodi» hisoblangan Jaloliddin Manguberdini milliy qahramon sifatida tasvirlagani, ijodkor sifatida feodal o'timishni qo'msaydigan odam ekanligi kabi ayblar tirikaladi.

Shayxzodaning boshiga ana shunday qora kunlar tushishida Uyg'un, Milchakov singari uyushma rahbariyatidagi vakillarning qo'li borligidan ham ko'z yuma olmaymiz. Yozuvchilar uyushmasidan o'chirilgan, ruhiyatida keskin o'zgarishlar kechayotgan Shayxzoda ikki oy o'tar o'tmas qamoqqa olinadi. Sudgacha bo'lgan tergov jarayonlari ham 1937 - 38-yillardagi dastlabki qatag'on davrlaridan sira kam bo'lgan emas.

Kechayu kunduz so'roqlar, soxta guvohlar bilan yuzlashtirishlar, besabab tahqirlar uning irodasini buka olmaydi. Shuni ham aytish kerakki, o'sha davr hayotini aks ettiruvchi arxiv hujjatlari bilan yaqindan tanishsangiz, ko'plab adiblarimizdan ixlosingiz qaytib ketishi mumkin. Shayxzoda o'ziga ham, o'zgalarga ham gard yuqtirmasdan, chalasavod tergovchilarning bema'ni savollarga aniq-tinik javob qaytaradi. Ularni o'zining zakilyi bilan mot qilib qo'yadi. Lekin shunga qaramasdan u kishini yigirma besh yil ozodlikdan mahrum etish to'g'risida hukm chiqariladi. Jazoni o'tash uchun esa Irkutskdagi jazo lagerlaridan biri belgilanadi.

Agar 1953-yili I.V. Stalin vafot etmaganida Shayxzoda va u singari beayb jazoga tortilgan adiblarning umri Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir singari nihoyatda fojiali kechishi mumkin edi. Shayxzodaga xos tantilik, bag'rikenglik, olijanoblikni qarangi, qamoqdan qaytib kelganidan keyin ham biron kishiga: "Men sen tufayli jazo tortdim, sen mening qamalishimga aybdor bo'lgansan", demagan.

Qamoqda turgan azoblari, ruhiy qiynoqlar sabab Shayxzoda 60 yoshga ham yetmay 1968-yil 9-fevral kuni olamdan o'tdi. U kishi har gal ta'kidlarkanki, "Agar men vafot etadigan bo'lsam, Milchakov, Sheverdin, Zinat Fatxulin singari kishilar vido so'zlarini so'zlamasin!" Ammo o'sha paytlari uyushmaga rahbarlik qilib turgan Komil Yashinga o'tkazilgan bosim tufaylimi yoki boshqa vajdanmi Shayxzodaning qabri tepasida ana shu kishilar vido so'zlarini aytishgan. Uning qabri tepasiga o'rnatilgan yodgorlik Shayxzodaning ukasi Fuad tomonidan tayyorlangan loyiha asosida bunyod etilgan. Bir so'z bilan aytganda, Shayxzoda salmoqli ijodiy mehnat bilan shug'ullanishi barobarida ro'shnolik, yorug'lik ko'rmay o'tgan adiblarimizdan. Hatto, ayrim hamkasblari o'sha qatag'on davrlaridan so'z ochgan lahzalarda "Zamon shunday edi", deya gapni muxtasar qilishi ham uning olijanob hislatlarga limmo-lim ekanligidan dalolat beradi.

Naim KARIMOV,
O'zbekiston fan arbobi,
professor



RO'ZA KUNIDA

O'shanda ham ro'za edi...

Shaharda dovrug'i dong ketgan «Korzinka» do'konlarining biriga tirkash ulovjoy chetida tarvaqaylagan o'risi daraxt soyasida mashinadan tushdim. «Uh kuydiradi-ya, kuydiradi... (Kunni aytayapman...)». Yonimga oq «Neksiya» kelib to'xtadi. Haydovchi tomondagi orqa o'rindiq eshigi ochilib, boshdagi do'ppisi qiyshaygan, kosovdekkina qoraygan, o'zg'in, qiltanoqqina, maydaiyak bir nusxa tushdi. Qirg kilo chiqib chiqmaydigan bu jimjidekkina odamcha, dorixonona tomon bedanayurish qilgan ham ediki, yonimizdagi «Spark»dan bir barzangi otilib chiqib uning yoqasidan olib dast ko'tardi. Odamchani yerdan uzilgan oyoqchalari pildir-pildir qildi. Devsifat lo'lonko'z, xumkalla o'g'lon biligidagi mushaklarini suvda oqqan olmaday o'ynatib odamchani bir qo'llab ko'targan ko'yi «Spark»ning orqa eshigi oldiga olib keldi:

– Ti chyo? Nima qip qo'yding. Nu-ka, smotri. Chto za... Ko'zingga qarasang o'lasanmi?

– Men... Men dorixonaga, dori olish uchun tushuvdim, – tutildirdi odamcha.

«Spark»ning orqa eshigiga hech narsa qilmagan. Bor yo'g'i qurtning yuqidekkina mayda oq dog'ni ko'rdim. Shunga shuncha to'polon deng. Eh, odamning qadri-ya, odamning qadri... Barzangining bilagiga yopishdim. Devsifat junbosgan basharasini bujmaytirib menga lahza termulib turdi, aft-angorim, ust-boshim, o'zimni tutishim ta'sir etdi chog'i, gurziday qo'lini bo'shatdi. Burgut changalidan tushgan tovushqonday tipirchilagan odamcha dag-dag' titrab mening ortimdan panoh topdi.

Bu voqea shunchalar tez bo'lib o'tdiki, oq «Neksiya»ning old eshigi ochilib, mashinadan viqor bilan tushgan bosh-oyoq oppoq kiyigan, nuroniy, ko'ksiga tushgan oppoq soqoli yoniq chehrasiga yanada ziyobaxshlik bergan otaxon biz tomonga biroz hayratomuz nigoh tashladi. Pishnab hansirayotgan barzangi cholga ijrg'anib qarab qo'ydi va yana odamchaga xezlandi:

– To'laysan. Hozir ustaga boramiz.

Men chidab turolmadim:

– Og'ayni, o'zingizni bosing. Hech narsa qilmagan-ku...

Go'roso'xta menga ilkis qaradi:

– Siz aralashmang...

Men tomirida odamiylik qoni qotib qolgan bu badkirdorning qiyofasidan o'zimga, xalqimga qardoshu qondoshlik taftini tuymadim. Yo'q, bu o'zbekmas, qoni buzuk bir xunasa, degan xayolga keldim; bilmadim, kim-kimlarning qoni aralash-quralash bu odamyovvoyidan ayni tobda yaxshilik kutib bo'lmasdi.

– GAI chaqiraman. Hech qayerga ketmaysanlar, – dedi barzangi.

Mojaroga otaxon bosh suqdi:

– Bolam, shifoxonaga kasal olib ketayapmiz. Emizikli bola. Shuncha yo'ldan rosa bo'larimizcha bo'lib kelayapmiz.

Odamcha cho'ntagidan dastro'molcha chiqarib «Spark»ning orqa eshigini shoshapisha artgan edi, no'xotdek oq dog' ham yo'qoldi. Noiloji-notovonlik nuqsi urgan sho'rlikka achinib ketdim. Mashina ichidan chaqaloqning ching'irib yig'lagani eshitildi. Orqa o'rindiq eshigi ochilib kuyib-pishib ketgan, yuzida ter ko'pchigan ko'yi ko'ksidagi go'dagini igr'alab navnihol bir juvon ham tushdi. Bola hamon chinqirardi.

– Bularni yo'ldan qoldirmang. Hech bo'lmasa manavi norasidaga rahmingiz kelsin og'ayni...

Barzangi menga qosh uchirdi:

– Aytдим-ku, siz aralashmang deb. Ana, taksi to'xtatib bering.

– Bolam, ro'za kunlari, bizni qiynamagin... Otaxon zorlandi.

– Bo'pti, pulini to'lalaring.

Otaxon so'lish oldi. Odamcha cho'ntagini kovlaydi.

– Yaxshi ish qilmayapsiz, og'ayni, – dedim o'zimni zo'rg'a tutib...

Negadir ota jilmayganday bo'ldi.

– Qo'yavering o'g'lim, biz rozimiz. (So'ng barzangiga xotirjam tikildi.) – Endi bizga ruxsatmi, bolam?

Men nima qilarimni bilmay otash urayotgan osmon ostida so'ppayib turdim. Barzangi odamcha bergan pulni siqimlab «Spark» eshigini ochib, tortmachaga tashlab qo'ydi.

Oq «Neksiya» joyidan jildi. Nimadir qasirlaganday bo'ldi. «Spark»ka soya tashlab turgan o'risi daraxtning bir shoxi qars etib sinib tushdi-da, barzangining ulovini qoq belidan qapishtirib qo'ydi. Bu holat shunchalik tez sodir bo'ldi-ki, men joyimda taxta bo'lib qotib qoldim. Badanim jimirlab, tepa sochim boshimga son-sanoqsiz igna bo'lib sanchildi. Endigina mashinadan tushib ulgurgan barzangi qo'llari bilan boshini changallab o'kirib yubordi.



Qo'chqor NORQOBIL



QO'L URISH HAM, UNDAN QAYTARISH HAM O'Z QO'LIMIZDA

Xorazmdagi mehrbonlik uyida tarbiyalanayotgan 15-17 yoshli qizlarning mansabdor shaxslar tomonidan muttasil zo'rlangani, eng achinarlisi, bunday qabih ishga mehrbonlik uyi rahbarining bosh-qosh bo'lgani haqidagi noxush xabar hamon jamoatchilikka tinchlik bermayapti.

Ayniqsa, bu jinoyat ishi bo'yicha bo'lib o'tgan yopiq sud majlisida mehrbonlik uyi rahbariga 5 yil, voyaga yetmagan qizlarning nomusini poymol qilgan mansabdor shaxslarga esa bor-yo'g'i 1,5 yildan ozodlikni cheklash (uy qamog'i) jazosi belgilangani ming-minglab yurtdoshlarimizning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Oliy sud matbuot xizmati axborotiga ko'ra, Xorazm viloyati prokuraturasining kassatsiya tartibidagi protestiga asosan mazkur jinoyat ishi 6-aprel kuni Oliy sudning jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atida kassatsiya tartibida ko'rib chiqilar ekan. Aytaylik, bu ish chindan ham qayta ko'rib chiqilar, jinoyatchilarga og'irroq jazo ham belgilanar, lekin 15,16,17 yoshli busiz ham ko'ngli o'ksik yetim qizlar qalbidagi jarohatni endi davolab bo'lmikan? Yurtimizda xotin-qizlarni e'zozlash, ularning

qadrini yuksaltirish, jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash, nozik yelkalaridagi yukini yengillatish, bilimli, ilmli qizlar safini kengaytirish uchun tinimsiz harakat qilinayotgan bir paytda yuqoridagidek holatlarning yuz berishini qanday baholash mumkin?! Ma'lumotlarga qaraganda Markaziy Osiyo davlatlarida pedofiliya uchun turlicha qamoq jazo muddatlari belgilangan. Jumladan, Qozog'istonda 12 yil, Tojikistonda 5 yil, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekistonda 3 yil... Nazarimda, bunday jinoyatchilarga jazo tayinlashda Qozog'iston tajribasidan foydalanish to'g'riroq bo'lardi. Shu o'rinda yana bir gap: yuqoridagi noxush holat tafsilotlarini hali anglab ulgurmasimizdan, Sergeli tumanida bir ayolning 3 nafar farzandi bilan o'zini 9-qavatdan pastga tashlagani haqidagi sovuq xabar tarqaldi.

Beixtiyor opa-singillarimizga nima bo'lyapti o'zi, deging keladi. Biz axir insonmizku! Bu «nozik hilqat» vakilasining tutgan yo'lini biron sabab, vaj-karson bilan oqlab bo'ladimi? To'g'ri, bu fojiga oilaviy kelishmovchiliklar, balki arziqli muammolar sabab bo'lgandir. Voqeaning ehtimoliy sabablari tergov jarayonida aniqlanar, lekin hayotdan bevaqt ko'z yumgan uch nafar go'dakning uvoli bugun kimning bo'ynida qoladi? Agar bu oila muhiti nosog'lom bo'lsa yoki muammolar girdobida qolgan bo'lsa, nahotki bu holdan marhuma hamda turmush o'rtog'ining yaqinlari, qo'ni-qo'shnilar, qolaversa, mahalla-ko'y bexabar bo'lsa?! Dinimizda o'z joniga qasd qilish qattiq qoralanadi. Nafaqat o'z joniga, balki begunoh norasidalarining hayotiga ham qasd qilgan bu marhumaning gunohi qanchalar ekan-a'..

Afsuski, tegishli tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarga o'z joniga qasd qilish og'ir gunoh ekanini, bu eng so'nggi chora emasligini tushuntirish borasida olib borilayotgan ishlarga qaramay bu kabi holatlar tez-tez takrorlanmoqda. Ayol bot-bot jinoyatga qo'l urmoqda. Demak, bu boradagi faoliyatimizni yanada jonlantirishimiz, kuchlarimizni birlashtirishimiz lozim. Toki, hech bir ayol muammolari girdobida yolg'iz qolmasin, har bir ayol eshitilsin, ortida himoyachisi borligini his qilsin! Shu o'rinda bir fikr ko'ngilga taskin beradi: Yangilanayotgan Bosh Qomusimizda davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi qat'iy belgilab qo'yilmoqda. Shu bilan birga endi farzandlar tarbiyasi, ularga ta'lim berish, barkamol

voyaga yetkazish ham ota-ona majburiyati sifatida belgilanyapti. Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish esa davlatning burchi sifatida ko'rsatilmoqda. Bu normalar shubhasiz oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash, xotin-qizlar huquqlarini har tomonlama himoya qilish, bu boradagi qonunchilikni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.



Feruza JALILOVA,
partiya Markaziy
kengashi bo'lim boshlig'i

OBUNA – 2023!

**2023-YIL UCHUN «MILLIY TIKLANISH»
GAZETASIGA OBUNA BO'LING!
Obuna indeksi**

158

Mutolaa

“KITOBXONLIK HAFTALIGI” YUKSAK SAVIYADA BOSHLANDI



Mamlakatimizda o'tkazilayotgan “Kitobsevar millat” shiori ostidagi III respublika “Kitobxonlik haftaligi” doirasida Orolbo'yida ham qator madaniy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Nukus shahridagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Axborot-kutubxona markazida “Kitobxonlik haftaligi”ning ochilishi munosabati bilan tashkil etilgan marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot

va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi a'zolari hamda talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Tadbirda so'z olganlar keyingi yillarda mamlakatimizda aholi o'rtasida kitobxonlikni ommaviylashtirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.

Ishirokchilar “Yangi adabiyotlar”, “Yubilar adabiyotlar”, “Qoraqalpoq

folklori”, “Sehrii kitoblar mamlakati bo'yab sayohat” nomli kitoblar ko'rgazmasi bilan tanishdi.

Ta'kidlash joizki, haftalik doirasida oliy ta'lim dargohlarida “Yoshlarda axborot almashuvi madaniyatini rivojlantirish istiqbollari”, “Xalq og'zaki ijodida ayollar timsoli”, “Xalq og'zaki ijodining durdona dostonlari”, “Kitobxon ona, kitobxon bola” nomli davra suhbatlari va shu kabi qator adabiy kechalar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Maqsad HABIBULLAEV, O'ZA

10-aprel – Abdulla Qodiriy
tavallud topgan kun

MILLATIMGA BIR QAROR

Kel ey millat, bir kun bir maslahat bilan qaror o'lsun,
Bu kundin o'tgan ishlarga pushaymon birla or o'lsun.
Qilaylik bul kuni hayrat hama birdan qilib himmat,
Jaholat cho'l sahrosida minba'd sabzavor o'lsun.
Bu nodonlik biza qilmish edi to'rt faslni qishdek,
Jahonni zimistoni do'nub fasli bahor o'lsun.
Ayashmay kumush-oltunni hamma boyonlar aslo,
Solib dorifununlar ham makotiblar hazor o'lsun.
O'qushsun millat avlodi bizni doim duo aylab,
Qilib tahsil ulumlarni fununa yaxshi yor o'lsun.
Ochayluk jami'atlar, ko'b yig'aylik ham inoyatlar,
Ki toki yatim va bechora bekasg'a mador o'lsun.
Necha chog'lar bo'lubdurkim, qochibimiz biz taraqqiydin,
Bu kun bir iltifot birlan bu yo'lg'a bir guzor o'lsun.
Jaholat sassig'i bizni hamisha behuzur etdi,
Bu kun ilmning bo'yi birlan dimog'lar mushki bor o'lsun.
Bizning johilligimizni ko'rib ul shod bo'lganlar,
Ko'rib mashg'uliyatimizni ilmg'a sharmisor o'lsun.
Kimikim jur'at aylab, bul kalomlarg'a amal qilsa,
Jahonda ismi ani pahlavon nomdor o'lsun.
Bu kun men so'zladim oz nuq siza to Qodir o'lguncha,
Ilohi aylasun ta'sir shu so'z sizga bakor o'lsun.

Abdulla
Qodiriy



TO'Y

Qildi bu vaqt bizda javlon to'y,
Oqchasi yo'qni etdi hayron to'y.
Bir-biridan oshurdilar to'yni,
Topdi ravnaq, hayratila boyon to'y.
Besh kun to'yni so'ngidin
Ketibon mulklar bois fig'on to'y
Boyon to'yig'a yerlilar qarab
Etdi sarf toki tandagi jon to'y.
Ey g'aniylarimiz, ey faqirlarimiz,
Amr etubdurmi bizg'a Qur'on to'y.
Mundayin ishlar shar'imizda yo'q
Kori maj'us, kori shayton to'y.
Ishlamas shunday aqllik kishi,
Yo'lamas aslo ahli vijdon to'y.
O'lsa to'y birla yoz-u qishimiz,
Aylagay bizni yerg'a yakson to'y.
Kelingiz do'stlar, din qarindoshlar,
Tashlasun bo'lsa gar musulmon to'y.

AHVOLIMIZ

Ko'r bizning ahvolimiz, g'aftlata qanday yotamiz,
Joi kelgan chog'ida vijdonni pulg'a sotamiz.
O'g'limizg'a na adab, na fan, na yaxshi so'ylamak,
Na xudoni buyrug'i bo'lgan ulum o'rgotamiz.
Korimiz shundan iborat bo'ldi ushbu vaqtda,
O'ntadin bedona boqib yoz-u qish sayrotamiz.
Hamda har kun takyalarda nasha ko'knori chekib,
Bachchag'a kokil solib, oh-vo'ila o'ynotamiz.
Qarimiz, boyonimiz, balki bu vaqt o'qovondamiz,
Nogahon ko'rsak agar bir besoqolni qotamiz.
O'rtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyguchi,
Biz ani dahriy sanab, to' fangcha birla otamiz.
Kelingiz yoshlar, ziyolilar bu kun g'ayrat qiling,
Uxtaganlarni agar qodir esak uyg'otamiz.
Ulum-ilmilar.

FIKR AYLAG'IL

Oqilo fikr aylag'il, ki na ishlayur ahli vatan,
Qaysi fosiq, qaysi johil, qaysisi bo'ldi chaplan?
Qildilar bir-birig'a dushmanlikni har vaqt beibo,
Bir-birini aybin ochmoqg'a kirishdilar bajan.
Yer sotarlar elda necha to'y bajo etmak uchun,
Chunki bid'atin yo'lida ham fidodur jon-u tan.
Pulni ko'b isrof etarmiz, bizg'a to'g'ri kelmag'ay,
To'libon toshni bu vaqt ul aqchalardin resto'ran.
Zanlari sohibjamol-u ham satang deb o'ylama,
Yeb-ichib jir bitmagan andoq sigiri belabon.
Qizlarin bo'ynida ko'rub zebigardon ham tumor,
O'ylamangiz olima deb jumlasini naf'siz, ziyon.
Tushsa pul qo'lig'a gar, soatcha to'xtab turmagay,
Chunki nodonni qo'lida mushit tufroqdur suman.
Qodiriy nazdingiza oz hasratidin so'yladi,
Ayb etub qilmang haqorat, muhtarim ahli vatan.

Turizm

FARG'ONA SAYYOHLARNI CHORLAMOQDA



Prezidentimiz raisligida joriy yilning 29-mart kuni o'tkazilgan mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda soha rivojining dolzarb vazifalari belgilab berildi. Ayni kunlarda Farg'ona viloyatida ham bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda viloyatning Qo'qon, Marg'ilon va Farg'ona shaharlari, Rishton tumanida boshqa hududlarga qaraganda turizm yaxshi rivojlangan. 2022-yil viloyatda 15 ta turistik xizmatlar ko'rsatilib, turizm eksporti hajmi 46,5 million dollarni tashkil etdi. Mutaxassislar joriy yilda viloyatda qo'shimcha xizmat turlarini kengaytirish orqali turizm eksporti hajmini 100 million dollarga yetkazish mumkinligini hisob-kitob qilishdi.

– Bu yil viloyatda turizmni drayver sohalardan biriga aylantirish maqsadida har bir shahar-tuman kesimida alohida “Yo'l xaritasi” ishlab chiqildi, – deydi Farg'ona viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi mutaxassisi Nodira Zokirova. – Xususan, Dang'ara tumanida safari turizmi, Oltiariqda agroturizm va tibbiyot turizmi, Yozyovonda gastronomik va Beshariq tumanida or turizmi bo'yicha turistik marshrutlarni ko'paytirish, xizmat sifati va salmog'ini oshirish vazifasi belgilandi.

Farg'ona viloyati hokimligi tashabbusi bilan o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, bugungi kunda viloyatga kelayotgan chet elliklarning aksariyati 50 va undan yuqori yoshdagi sayyohlardir. Xorijlik turistning ikki kunlik sarf-xarajati o'rtacha 182 dollar. Shu sababli, birinchi navbatda turizm xizmatlari jozibadorligini oshirish hisobiga sayyohlar uchun besh kunlik dasturlar ishlab chiqish belgilandi. Hisob-kitoblarga qaraganda, bir nafar chet ellik sayyoh besh kunda viloyatda o'rtacha 330-350 dollar xarajat qiladi. Farg'ona viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi axborot xizmatining ma'lum qilishicha, joriy yilda viloyatda umumiy qiymati 1 trillion 117 milliard 245 million so'mlik 66 ta loyihani amalga oshirish hisobiga turizm sohasida 1,5 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratish ko'zda tutilmoqda. 2023-yil viloyatda turizm va unga yondosh sohalarda

18 mingta doimiy ish o'rni tashkil etish maqsadida shahar-tumanlar kesimida aniq reja ishlab chiqildi. Shu tariqa viloyatda turistik ob'ektlar soni 370 taga yetkazilib, sayyohlarga 100 ga yaqin turoperatorlar xizmat ko'rsatishi ta'minlanadi. Umuman olganda, joriy yilda turizm axborot markazlari, Wi-Fi zonalarini, transport va gidlar faoliyatini kengaytirilishi hisobiga sohaning xizmat ko'rsatish ko'lamini kamida 30 foizga oshirish rejalashtirilmoqda. 2023-yilda “O'zbekiston bo'yab sayohat qil!” dasturi doirasida 1 million 500 ming, shu bilan birga 300 ming nafar xorijlik sayyohlarni Farg'onaga jalb etish maqsad qilingan. Prezidentimizning 2022-yil 29-iyuldagi “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qaroriga asosan, Qo'qon shahrida 12 ta moddiy-ma'naviy meros ob'ektlarini restavratsiya qilish va mukammal ta'mirlashga

kirishildi. Latif shaharda tashkil etilgan yangi turizm ko'chalarini yoritish tizimini yaxshilashga 2 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Landshaft arxitekturasini bo'yicha barpo etilayotgan so'lim xiyobonlar bo'yab 500 ta dekorativ soyabonli o'rindiqlar o'rnatish ko'zda tutilgan bo'lib, bugungacha 100 dan ortiq o'rindiqlar o'rnatildi. Jahon hunarmandlari shahri sifatida ham endilikda Qo'qonning dovrug'i yetti iqlimda mashhur bo'lmoqda. Bu borada Turizm sohasida ekspert - O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi turizm brendi elchisi Sofi Ibbatson bu qadimiy kentning ko'hna qit'adagi “tashrif qog'ozi” bo'lib xizmat qilayotir. Xo'qandi latifning turkiy davlatlar, Osiyo, Amerika qit'asi mamlakatlaridagi turizm elchilari ham shaharga butun dunyo sayyohlarini chorlash uchun astoydil harakat qilmoqdalar.

M.SULAYMONOV

? – Qizimning tarix darsligida Vatikan poytaxt shahar ichida joylashgan alohida davlat, degan ma'lumotni o'qib qoldim. Bu qanchalik to'g'ri?
Shaxnoza Begatova,
Kasbi tumani, uy bekasi

– To'g'ri, Vatikan 1870-yilda Italiya birlashishi munosabati bilan Italiya qirolligi tarkibiga qo'shib olingan. 1929-yilda Papa va Italiya hukumati o'rtasidagi Lateran bitimi natijasida Vatikan davlati qayta tiklangan hamda 1929-yil 11-fevralda mustaqil davlat sifatida tan olingan. Vatikan va O'zbekiston ortasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yil 17-oktyabrda yo'lga qo'yilgan. Yana bir ma'lumot: Vatikan davlati jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan holda, BMTga a'zo bo'lmagan yagona davlat hisoblanadi.

Dilnoza Rajabova,
mustaqil tadqiqotchi

? – O'qishim uchun to'lov-shartnoma pulini to'lashga qiymalyapman. Bu vaziyatda universitet tomonidan biror yordam yoki imtiyoz berilishi mumkinmi?

Gulshoda Sobirova,
Guliston shahri

– To'lov-kontrakt asosida o'qish ixtiyoriy bo'lib, tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mazkur toifadagi talabalarga oliy ta'lim muassasasi tomonidan to'lov shartlarini yengillashtirish bo'yicha imtiyozlar berish ko'zda tutilmagan. Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-iyuldagi "Oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlari berish to'g'risida"gi 318-sonli qaroriga asosan, bank muassasari tomonidan "ta'lim krediti" olishingiz mumkin.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
axborot xizmati



? – Hozir turmush o'rtog'im xorijda yashaydi. U kishi referendumda ovoz berishda qatnashishi mumkinmi?
Umida O'roqova,
Yakkabog' tumani

– O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va chet davlatlarning vakolatli davlat hokimiyati organlari bilan kelishuvlarga muvofiq, chet davlatdagi diplomatik va boshqa vakolatxonalar huzurida tuzilgan referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyasi fuqarolarning turgan joyida ovoz berish vaqti hamda joyi to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu haqda fuqarolar va kuzatuvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali xabardor etadi. Ovoz berish jarayoni referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyasining kamida 2 nafar a'zosi hozirligida o'tkaziladi. Demak, turmush o'rtog'ingiz o'zi faoliyat olib borayotgan xorijiy davlatda tuzilgan referendum uchastkasi orqali ovoz berishi mumkin.

Markaziy saylov komissiyasi
matbuot xizmati

? – Lizingga avtomashina olmoqchiman. Keyin uni sota olamanmi?
Jamshid Xo'jayev,
Termiz shahri

– O'zbekiston Respublikasi "Lizing to'g'risida"gi qonunning 2-moddasiga asosan lizing — moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan, uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun 12 oydan ortiq muddatga beradi. Lizingning asosiy sharti lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing obyekti lizing oluvchining mulkiga aylanishidir. Sizda avtomashinaga nisbatan mulk huquqi lizing tugagandan so'ng vujudga keladi.

Advice.uz

? – Kimlar temir yo'l kassalaridan navbatsiz chipta olishlari mumkin?
Muhabbat Erdonova,
Sergeli tumani, savdo xodimi

– Temir yo'l kassalaridan Sovet Ittifoqi Qahramonlari, «O'zbekiston Qahramoni», «Sog'lom avlod uchun» ordenlari va «Shuhrat» medali bilan taqdirlanganlar, urush nogironlari va qatnashchilari hamda ularga tenglashtirilgan, Chernobil AESda avariya oqibatlarini bartaraf etish ishlarida qatnashgan, «Faxriy temiryo'lchi» nishoni bilan taqdirlangan shaxslar, shuningdek, Oliy Majlis deputatlari hamda Senat a'zolari, shuningdek, Ichki ishlar vazirligi xodimlari navbatsiz chipta olish imtiyoziga egadirlar.

"O'zbekiston temir yo'llari"
AJ axborot xizmati

? – Nikohni bekor qilish uchun sudda davlat boji kimdan undiriladi?
Yulduz Norboyeva,
Yangiyo'l tumani

– Davlat boji nikohdan ajratishni so'rab sudga ariza topshirgan tomondan, agar er-xotin birgalikda nikohdan ajratish haqida sudga ariza yozgan bo'lsa, o'zaro kelishgan holda tomonlarning biridan undiriladi. Davlat boji summasi BHMning 2 baravari miqdorida, takroriy nikohni bekor qilish uchun esa BHMning 4 baravari miqdorida undiriladi.

Isomiddin Jo'rayev,
huquqshunos

? – Futbol tomosha qilayotganimda muxlislarning "La-ola" degan so'zni ko'p ishlatganini eshitaman. Bu nimani anglatadi?
Sardor Qo'ziyev,
Zangiota tumani, tadbirkor

– "La-ola" so'zi ispan tilidan olingan bo'lib, to'loq ma'nosini bildiradi. Bu atama futbol muxlislarining o'ziga xos to'loqsimon ko'rinish hosil qilishidan kelib chiqqan.

Uzbaza.uz saytidan olindi.

O'zingizni qiziqirgan savollarga javob topolmayapsizmi? Bizning quyidagi telegram manzilimizga yo'llang, bizning mutaxassislar savollaringizga javob berishadi.

99
443-05-86

SPORT

PREZIDENT SOVRINI UCHUN "KURASH:

WORLD SERIES PRO" TURNIRI O'TKAZILADI



Yozgi Osiyo o'yinlari o'tkaziladigan Xanchjou shahrida milliy sport turimiz kurash bo'yicha qit'a chempionati doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun "Kurash: World Series Pro" turnirining Osiyo qit'asi saralash bosqichi bo'lib o'tadi. Bu haqda Xalqaro kurash

assotsiatsiyasi matbuot xizmati ma'lum qildi. Musobaqalarda 24 davlatdan 400 nafardan ortiq ishtirokchi qatnashish uchun ro'yxatdan o'tgan. Musobaqalarda dastlab erkaklar va ayollar 4 tadan vaznda bahs olib boradi. Keyingi kuni esa erkaklar o'rtasida 3 ta, ayollar o'rtasida 4 ta vaznda Osiyoning yangi qahramonlari nomi

aniqlanadi. Chempionat so'nggida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun "Kurash: World Series Pro" turnirining Osiyo qit'asi saralash bosqichi bo'lib o'tadi. Eslatib o'tamiz, kurash bo'yicha qit'a chempionati 25 – 30-aprel kunlari o'tkaziladi.

T.R.O'ZIYEV

«MILLIY
TIKLANISH»
DEMOKRATIK
PARTIYASINING
IJTIMOIY-
SIYOSIY
GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abnor PO'LATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MANATXONOV,
Ilhom ABULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAIONOVA,
Minhojiddin MIRZO,
Nodir MUXTOROV,

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

Odiljon TOJIYEV,
Olim O'SAROV,
Olim JIVANBOYEV,
Ozodbek NAZARBEKOV,
Ortiqil QOZDOV,
Feruza MUBHAMMEDJANOVA,
Xurshid DO'STUMHAMMAD,
Sherzodxon QUDRATXO'JA,
Shavkat SHARIPOV,
Shaxruxon AXUNDJANOV.

**TAHRIRIYAT
MANZILI:**

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxozoda
ko'chasi, 1 A-uy,
Gazeta tahririyat
kompyuter markazida
terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri
tahririyat nuqtayi
nazaridan farq qilishi
mumkin.

Tahririyatga kelgan satlar
doimiy e'tiborimizda bo'lib,
ular mualliflarga qaytarilmaydi.

**NAVBATCHI
MUHARRIRLAR:**
Ravshan MAHMUDOV,
Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Mal'murton YULDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharq» nashriyoti-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Korxonalar manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41-uy

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru /
mtiklanish@mail.ru

ISSN 2010-7714



2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston
Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0223 raqami bilan
ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni
chiqadi.

Adadi – 8 657.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qo'g'oz bichimi: A3. Hajmi: 4 bosma
taboq
Buyurtma: G – 416
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi: 4:35